

**O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSETITINING JIZZAX FILIALI

KUCHKAROV TUXTAMUROD OLIMOVICH

**O'ZBEK FOLKLORI EPIK SUJETLARINING
BADIY EVOLUTSIYASI**

10.00.08 – folklorshunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

UO‘K 398 (575.1)

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of dissertation on abstract of doctor of Philological Science (DSc)

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Kuchkarov Tuxtamurod Olimovich

O‘zbek folklori epik sujetlarining badiiy evolutsiyasi 3

Kuchkarov Tuxtamurod Olimovich

Artistic evolution of the epic stories of Uzbek folklore 37

Кучкаров Тухтамурод Олимович

Художественная эволюция эпических сюжетов узбекского фольклора 71

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 76

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSETITINING JIZZAX FILIALI

KUCHKAROV TUXTAMUROD OLIMOVICH

**O‘ZBEK FOLKLORI EPIK SUJETLARINING
BADIY EVOLUTSIYASI**

10.00.08 – folklorshunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023



Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.2.DSc/Fil1444 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tai.uz) va «ZiyoNET» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Mamatkuli Jurayev

filologiya fanlari doktori, professor

Turdimov Shomirza Ganiyevich

filologiya fanlari doktori

Rasmiy opponentlar:

Jumanazarov Umurzak Abdurazakovich

filologiya fanlari doktori, professor

Qayumov Olim Sadriddinovich

filologiya fanlari doktori

Keruenov Turganbay Arazmedovich

filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog' gumanitar
fanlar ilmiy-tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar, beruvchi DSc,02/30,12.2019.Fil.46.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 12 aprel kuni soat 17 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent, Shahrisabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel.: (99871) 233-36-50; faks: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (20 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Ziyolilar ko'chasi, 13. Tel.: (99871) 262-74-58

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 27 mart kuni tarqatildi.

(2023-yil 24 mart dagi 5 -raqamli reyestr bayonnomasi)



J. Eshonqulov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi, filol. f.d., prof.

U. Mirzayeva

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.b.f.d.

R. To'xliyev

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash tashkildagi ilmiy seminar raisi,

filol. f.d., prof.

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon folklorshunosligida epik sujetlar, yetakchi motivlar, asosiy qahramonlar genezisi va badiiy evolutsiyasini tadqiq etish va uni atroflicha yoritishga, xususan, epos tarixini turli ilmiy metodga tayanib rekonstruksiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada xalq dostonlari borliqni mifologik idrok etish asosida vujudga kelgan arxaik sujetlarga borib taqalishi haqidagi nazariy qarashlar chuqurlashtirildi. Dostonning variant va versiyalari paydo bo'lishi va shakllanishi jarayonlari turli davrlarga xos tipologik xususiyatlarini o'rganish va epos taraqqiyotining arxaik qatlamiga mansub folklor yodgorliklarini har bir xalq tarixiga oid manbalarga tayanib yoritishga alohida diqqat qaratilmoqda. Bu ilmiy izlanishlar nafaqat jahon xalqlari, balki muayyan etnosga tegishli xalqlar eposini qiyosiy tadqiq qilish asosida ularga taalluqli manbalarning genezisi, sujeti, motiv va qahramonlarining shu xalq badiiy tafakkuridagi o'rnini atroflicha tadqiq etish imkoniyatlarini yaratib beradi.

Dunyo folklorshunosligida xalq dostonlari tarkibida keluvchi epik sujetlar tizimining shakllanish tarixini, manbalari va takomillashuv jarayonini o'rganishga alohida e'tibor qaralilib, muayyan xalqning epik tafakkuri evolutsiyasining o'ziga xos jihatlari ko'rsatuvchi qonuniyatlarni ochishga alohida diqqat berib kelinmoqda. Bu jarayonda epos uchun universal sujetga asos bo'lgan arxaik tip va arxetiplarning badiiy evolutsiyasini oydinlashtirish tamoyili yetakchilik qilmoqda. Ushbu yangi nazariy konsepsiyalar turkiy xalqlar eposining genezisi, taraqqiyot bosqichlari va davrlarini, sujet, motiv va qahramonlarning evolyutsion rivojlanish tamoyillarini yoritib berish nuqtai nazaridan folklorshunosligimiz oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng xalqimiz badiiy tafakkuri taraqqiyoti rivojiga munosib zamin bo'layotgan xalq og'zaki ijodi namunalari qatorida turgan o'zbek folklori epik sujetlarning badiiy evolutsiyasini o'rganish va tadqiq etishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. "...Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari, eng avvalo, har qaysi millatning folklor san'atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma'lum. ... Jahon madaniy merosining bu o'lmas asarlari bizga insoniyatning nasl-u nasabi, tarixiy ildizlari, olijanob ideallari bir ekanini, binobarin, turli millat va elat vakillarining kelajak sari intilishlari ham mushtarak ekanini anglatadi".¹ Ma'lumki, o'zbek folklori epik sujetlarning har bir davrdagi tarixiy-folkloriy jarayonga xos xususiyatlarni tashuvchi manba sifatidagi belgilarini aniqlash, yozma manbalardagi folklor materiallarini O'rta Osiyo turkiy xalqlari folklori kontekstida tahlil qilish, paleofolkloristik yo'nalishdagi qiyosiy tadqiqotlar natijasida o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotida mavjud bo'lgan muayyan epik sujetning an'anaviylashish jarayoni hamda epik sujet va uning tarkibidagi asosiy motivlarning genezisini aniqlash hamda sak-massaget eposi an'analarning o'zbek dostonlari sujet qurilishidagi o'rni va uning poetik transformatsiyasini tadqiq etish folklorshunosligimizning dolzarb vazifalaridandir.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро бахшичилик санъати фестивали очилишига бағишланган таътанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи. – Тошкент, 2019 йил, 7 апрель. – № 68.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 1-noyabrdagi PQ-3990-son "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida", 2019-yil 14-maydagi PQ-4320-son "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 23-sentabrdagi PQ-798-son "Respublika baxshichilik san'ati markazi va uning huzuridagi baxshichilik san'atini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari, 2019-yil 6-apreldagi "Xalqaro baxshichilik san'ati" festivalining ochilishi tantanalaridagi nutqi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi 220-son "2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida", 2018-yil 26-apreldagi 304-son "Baxshichilik va dostonchilikni yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlat rivojlanishining ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Epik sujetlarning badiiy evolutsiyasi, yozma manbalardagi folklor materiallari, O'rta Osiyo turkiy xalqlari folklori, paleofolkloristik yo'nalishdagi qiyosiy tadqiqotlar, epik sujetning an'anaviylashish jarayoni, epik sujet va uning tarkibidagi asosiy motivlarning genezisi aniqlash hamda sak-massage eposi an'analarning poetik transformatsiyasini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, University of Harvard (USA), University of Bonn (Germany), University of British Columbia (Canada), Ege Universiteti (Turkey), Qozon davlat universiteti (Rossiya); Baki Dövlət universiteti, Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası Folklor instituti (Ozarbayjon), Yeuraziya ʻlittiyat universiteti (Qozog'iston), Kirgiz uluttuk universiteti (Qirg'iziston) va O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy adabiyotlar dumi // <http://www.Pedagog.ru/category/communit-theme/rating/desk/11>; <https://www.harvard.edu>; <http://www.Columbia.edu>; <https://www.Publishersweekly.com>; <https://www.Publishersweekly.com/pw/bytopic/industrynews/tipbest/article>; <https://www.wick.ac.uk/fac/arts/english/currentstudents/undergraduate/modules/fulllist/special>; [https://cyberleninka.ru/article/n/problemny-ravzitiyayi-va-boshqa-manbalar-asosida-analga-oshirildi](https://cyberleninka.ru/article/n/problemny-razvitiyayi-va-boshqa-manbalar-asosida-analga-oshirildi); Рационализм // 3. Современный фольклорный дискурс // https://www.aum.Md/index.php?option=com_Content&task=view&id=236&Itemid=146.

Jahon folklorshunosligida xalq ijodiyotining epik namunalari matnini paleofolkloristik hodisa sifatida tahlil qilish orqali asarning shakllanish manbalari bilan bog'liq ijtimoiy-estetik jarayonlar, ularning tarixiy-adabiy taraqqiyoti va bugungi taqdirini aniqlashga doir qator ilmiy natijalar olingan, jumladan, xalq dostonlari borliqni mifologik idrok etish asosida vujudga kelgan arxaik sujetlarga borib taqalishi aniqlangan (University of Harvard, USA); bugungi kunda dunyo folklorshunosligida dostonning variant va versiyalari paydo bo'lishi va ularning shakllanish jarayonlari turli davrlarga xos tipologik xususiyatlarni o'zida ifoda etgan yangi manbalarga bog'lanishi holati yoritilgan (University of Bonn, Germany); epos taraqqiyotining arxaik qatlamiga mansub folklor yodgorliklari har bir xalq tarixiga oid manbalarga bog'liqligi ochib berilgan (Ege Universiteti, Turkey); dunyo folklorshunosligida xalq dostonlari tarkibida keluvchi epik sujetlar tizimining shakllanish tarixini, manbalari va takomillashuv jarayonini o'rganishga alohida e'tibor qaratilib, muayyan xalqning epik tafakkuri evolutsiyasining o'ziga xos jihatlari ochib berilgan (Rossiya FANing M.Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti instituti, Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Voronej davlat universiteti, Qozon davlat universiteti, Rossiya); epos uchun universal sujetga asos bo'lgan arxaik tip va arxetiplarning badiiy evolutsiyasini oydinlashtirish tamoyili yetakchilik qilishi aniqlangan (Yeuraziya ʻllyq universiteti (Qozog'iston); turkiy xalqlar eposini genezisi, taraqqiyot bosqichlari va davrlarini, sujet, motiv va qahramonlarning evolutsion rivojlanish tamoyillari yoritilgan (Kirgiz uluttuk universiteti (Qirg'iziston); sak-massaget eposi an'alarining o'zbek dostonlari sujet qurilishidagi o'rni va uning poetik transformatsiyasi o'rganilgan (O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, O'zbekiston).

Dunyo folklorshunosligida paleofolklorni tadqiq etishda o'tmishda yaratilgan yozma manbalar, arxeologik materiallar, qadimgi mifologiya, urf-odat va marosimlarda saqlanib qolgan etnofolkloristik talqinlar ham muhim ilmiy qimmatga ega. Qadimgi davr folklori namunalari yoki uning muayyan sujet, motiv yoki obrazlari o'tmishda yaratilgan yozma yodgorliklar va moddiy madaniyat yodgorliklari (qoyatoshlarga chizilgan suratlar – petrogliflar, gil, tosh yoki yog'ochdan yasalgan haykalchalar, turli arxeologik topilmalar va h.k)da ham o'z ifodasini topganligi uchun ham epik sujetlarining badiiy evolutsiyasiga doir ilmiy izlanishlar olib borishda paleofolklor namunalarini o'zida saqlab qolgan yozma manbalardagi materiallarni tahlilga tortish kabi vazifalarni aniqlash kun sayin dolzarflik kasb etmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ma'lumki, qadimgi manbalardagi folklor sujetlari va ularning o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodidagi badiiy evolutsiyasi masalasi hozirga qadar maxsus o'rganilgan emas. Shunday bo'lsa-da, bir qator maqola va tadqiqotlarda dissertatsiyamiz mavzusiga oid qiziqarli mulohazalar bildirilgan. Xususan, A.Fitrat³, atoqli olim H.Zarifovning folklor va arxeologiya materiallarini qiyosiy o'rganishga oid maqolasi,⁴ o'zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslariga doir tadqiqotini⁵, Aziz Qayumovning "Qadimiyat

³ Фитрат А. Эски турк адабиёти намуналари. – Самарканд-Тошкент. 1927.

⁴ Зарифов Х. Фольклор ва археология материалларини кўрсаткич масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1958. – №1. – Б. 25-30.

⁵ Зарифов Х. Ўзбек халқ дostonларининг тарихий асослари буйича текширишлар / Пулкан шоир. – Тошкент,

obidalari” borasidagi asarini⁶, B.Sarimsoqovning epik janrlar diffuziyasiga oid ishini⁷ misol qilib keltirish mumkin. O‘zbek folklorshunosligida qadimgi xitoy manbalaridagi epik sujetlar, xususan, bo‘ri bilan bog‘liq mifik afsonalarning o‘zbek folkloridagi talqinlari, bir qator motivlar va epik qahramonlar genezisi va badiiyati bilan bog‘liq nazariy masalalar N.Rahmonov⁸, B.To‘xliiev⁹, U.Jumanazarov¹⁰, M.Io‘rayev¹¹, Sh.Turdimov¹², J.Eshonqulovlar¹³ tomonidan o‘rganilgan. Epik sujetlarning qadimiy namunalaridan biri – sak va massaget eposining tadjrijiy rivoji masalasi “Oysuluv” dostoni misolida T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, M.Qo‘shmoqovlar¹⁴ tomonidan tadqiq qilingan.

Adabiyotshunos F.Boynazarov¹⁵, folklorshunos S.Sariyevlarning¹⁶ antik davr yozma yodgorliklari va boshqa manbalar tahliliga doir ilmiy asarlarida qadimgi yunon va rim mualliflarining asarlaridagi Markaziy Osiyo folkloriga oid ko‘plab epik sujetlar, afsona va rivoyatlar keltirilgan.

Bundan tashqari, V.M.Jirmunskiy, M.Saidov, O.Sobirov, M.Is‘hoqov, H.Boltaboyev kabi olimlarning asarlarida ham qadimgi turkiy, fors-tojik, arab va boshqa tillardagi manbalarda o‘z aksini topgan epik sujetlar yuzasidan bildirilgan ayrim ilmiy mulohazalar mavjud.

Yuqoridagi qisqacha tahlil shuni ko‘rsatadiki, qadimgi yozma manbalardagi epik sujetlarning turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek folklori materiallari bilan qiyosiy tahlili amalga oshirilgan emas.

1974. – Б. 69-98

⁶ Қаюмов А. Қадимий обидалари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашрияти, 1972. – 183 б.

⁷ Саримсоқов Б. Эпик жанрлар диффузияси / Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент, 1981. – Б. 68-100.

⁸ Рахмонов Н.А. Орхоно-Енисейские памятники и тюркский эпос: Дисс. докт. ... филол. наук. – Ташкент, 1991. – 263 с.; Яна о‘sha. Қадимги ёзма ёдгорликлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. – 290 б.; Яна о‘sha. Фольклоризм ва мифологизация – қадимги туркий адабиётнинг асоси сифатида // Адабий манбашунослик. – Тошкент, 1987. – Б. 10; Яна о‘sha. Туркий эпос ва Урхун-Енисей ёдгорликлари муносабатига доир // Адабий манбашунослик. – Тошкент, 1987. – Б. 30; Яна о‘sha. Рухиятдаги нур муроди. – Тошкент: А Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – 141 б.

⁹ Тухлиев Б. Юсуф Хос Ҳожиб ва туркий халқлар фольклори. – Тошкент: Bayoz, 2013. – 112 б.

¹⁰ Жуманазаров У. Халқ эпосининг тарихийлиги ва тарихий эпос масалалари / Ўзбек фольклорининг долзарб масалалари. – Тошкент, 1991. – Б. 162-167; Яна о‘sha. “Ойсулув” – соф тарихий дoston / Ўзбек фольклорининг долзарб масалалари. – Тошкент, 1991. – Б. 168-172; Яна о‘sha. Этнономик ривоятлар – халқнинг этник состави ва социал тарихини урганиш учун муҳим манба сифатида // Ўзбек фольклорининг долзарб масалалари. – Тошкент, 1991. – Б. 47-49; Яна о‘sha. Ўзбек тарихий фольклори жанрлари ва уларни урганишининг айрим назарий масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1991. – №5-6; Яна о‘sha. Ўзбек фольклори ва тарихий воқелик. – Тошкент: Фан, 1991. – Б.185.

¹¹ Жураев М. Рукописное наследие и его роль в изучении эпической традиции тюркоязычных народов Центральной Азии // Рукописи – первичный источник изучения национального наследия (Материалы международной научной конференции. 13-14 марта, 2013 года). – Ашгабад, 2013. – С. 400-402; Яна о‘sha. Палеосий мифологик сюжетлари ва уларнинг археофольклористик талқини // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. – №5. – Б. 15.

¹² Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 4-5.

¹³ Эшонкулов Ж. Эпик тафаккур тадрижи. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 121; Яна о‘sha. “Дада Қурқут” китобида мифологик мотивлар // Milliy folklor. – Ankara, 2001. – № 4; Яна о‘sha. “Алпомиш” дostonи ва “Дада Қурқут” китобидаги бошланмаларнинг қиссий талқини / Ўзбек филологиясининг долзарб масалалари. – Бухоро, 2015. – Б. 152-156.

¹⁴ Мирзиев Т., Саримсоқов Б. Дostonлар, уларнинг таснифи ва тарихий тарихийлиги / Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент, 1981. – Б.6-23.

¹⁵ Бойназаров Ф. Ўрта Осиёнинг эпик дистри. – Тошкент, 1991. – Б. 36.

¹⁶ Сариев С. “Туркун” дostonлари асаси ва ади ёзма нуسخаларини асосий урганиш. Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2019. – 250 б.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Tadqiqot O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq 1-son "Filologiya fanlarining dolzarb muommolari va uni amaliyotga tadbiiq etish" mavzusi doirasida bajarilgan (2019-2021) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi O'rta Osiyo tarixiga oid qadimgi yozma manbalar hamda o'rta asr mualliflarining tarixiy-jo'g'rofiy asarlaridagi folklor materiallari asosida o'zbek folklori epik syujetlarining manbalari, asosiy motivlar tizimining shakllanish jarayoni va epik janrlarning tadrriiy rivojini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: O'rta Osiyoga oid tarixiy, jo'g'rofiy va ilmiy xarakterdagi va qadimgi yunon yozma manbalardagi folklor materiallarini aniqlash hamda ularni o'zbek folklorida qayd qilingan variantlarga solishtirish asosida epik syujetlarning tadrriiy rivojini o'rganish;

Paleofolklor hodisasi, sak-massaget eposi an'alarining o'zbek dostonlari sujet qurilishidagi o'rni va uning poetik transformatsiyasini o'rganish;

o'zbek folkloridagi yetakchi motivlar, epik syujetlarning genezisi, manbalari, tarixiy asoslari va ilk shakllarini aniqlash;

qahramonlik eposi, afsona va rivoyatlarda epik sujet poetik transformatsiyasi, badiiy evolutsiyasini yoritish;

Gerodot, Kursiy Ruf, Arrian, Polien, Diodor, Plutarx, Strabon kabi olimlarning asarlaridagi mifologik tasavvurlar, afsona va rivoyatlarni O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek folklorida mavjud bo'lgan mushtarak syujetlar bilan qiyosiy tahlil qilish asosida epik tafakkur tadrrijiga xos xususiyatlarni ochib berish.

Tadqiqotning obyekt. Dissertatsiya ishini yozishda O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi Folklor arxivi materiallardan, shuningdek, qadimgi xitoy va yunon yozma manbalari, arab-fors hamda turkiy tilda yaratilgan tarixiy, jo'g'rofiy va ilmiy adabiyotlardan manba sifatida keng foydalanildi.

Tadqiqotning predmetini qadimgi yozma manbalarda keltirilgan folklor syujetlari, turli afsona va rivoyatlar, arxaik epos namunalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, struktural tahlil, etnofolkloristik, matniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek folklori epik syujetlarining tarixiy-genetik asoslari va manbalarini aniqlashda turkiy (o'zbek) tilida Abulg'oziyning "Shajarai turk", fors-tojik tilida Narshaxiyning "Buxoro tarixi", Rashid ad-dinning "Jome' at-tavorix", arab tilida Beruniyning "Osor ul-boqiya" hamda Geradodning "Tarix", Strabonning "Geografiya", Poliennning "Harbiy xiyalalar" kabi yunon tillarida yozilgan qadimgi yozma manbalardagi materiallar asosida folklorshunoslikda ilk bor epik syujetlar "Oysuluv va Kunbotir", "Oychinor" dostonlarining sujeti Gerodotning "Tarix" asarida hikoya qilingan To'maris to'g'risidagi rivoyat sujeti evolyutsiyasi ekanligi aniqlangan;

o'zbek folklori epik syujetlarining shakllanishida O'rta Osiyo hududida yashagan qadimgi etnoslar tarixi, jo'g'rofiyasi va madaniyatiga oid yozma manbalar materiallari asosida sak-massaget qabilalri epik syujetlarining o'rni

ko'rsatib berilgan;

o'lkamiz tarixi, jo'g'rofiyasi, madaniyati, tili va adabiy qadriyatlariga oid yozma manbalar, turli davr sayyohlari va olimlarining memuar asarlari va manbalarda keltirilgan "Tumaris" rivoyati, "Oysuluv va Kunbotir" hamda "Oychinor" dostonlari syujetlarining qadimgi epik sujetlarga aloqadorligi aniqlangan;

qadimgi mifologiya va mifik sujetlarning yozma manbalardan o'rin olishi, ommalashish xususiyatlari hamda Gerodotning "Tarixi", "O'g'uznoma", "Shajarai turk", "Shajarai tarokima" kabi manbalardagi folklor materiallari asosida epos sujetlari va an'anaviy motivlarning proturkiy epos tarkibidagi o'rmi, tadrijiy takomili va genetik asoslari oydinlashtirilgan;

afsona va rivoyatlarda epik sujetning poetik transformatsiyasi hamda etnonimik rivoyatlar syujetining badiiy evolyutsiyasi o'g'uz qabilalari epik an'anasining tashuvchilari hisoblangan o'zon, ya'ni baxshi-shoirlar tomonidan yaratilgani "Alpomish" dostonida nomi tilga olingan Boysun eponimi va yirik adabiy yodgorliklardan biri bo'lgan O'rta Osiyo o'g'uz eposi "Kitobi dadam Qo'rquq" kitobi orqali ochib berilgan;

xalq dostonchiligining yaratilishi, taraqqiyoti va rivojlanishini ta'minlaydigan eng muhim omillardan biri bo'lgan epik bilim va epik xotiraning shakllanishida qadimgi sak-massaget arxaik eposi muhim rol o'ynaganligi isbotlangan.

Tadqiqot amaliy natijalari.

o'zbek folkloridagi yetakchi motivlar, epik sujetlarning genezisi, manbalari, tarixiy asoslari va ilk shakllari jahon xalqlari epik sujetlarini qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganish asosida badiiy tafakkurning tarixiy asoslari aniqlangan;

Gerodot, Kursiy Ruf, Arrian, Polien, Diodor, Plutarx, Strabon kabi antik dunyo mualliflarining asarlaridagi mifologik tasavvurlar, afsona va rivoyatlarni O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek folklorida mavjud bo'lgan mushtarak sujetlar bilan qiyosiy tahlil qilish asosida epik tafakkur tadrijiga xos xususiyatlar oydinlashtirilgan;

yozma manbalardagi folklor materiallarini O'rta Osiyo turkiy xalqlari folklori kontekstida tahlil qilish o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotida mavjud bo'lgan muayyan epik sujetlar, an'anaviy motivlar yoki obrazlarning tarixiy ildizlarini ochib berilgan;

folkordagi muayyan sujetning turli davrlarga oid namunalarini o'zaro qiyoslash epik tafakkurning tadrijiy rivojiga xos qonuniyatlar belgilanib, epik sujet evolutsiyasi davomida ro'y bergan o'zgarishlar o'rganilgan;

O'rta Osiyoga oid yozma manbalardagi folklor materiallarini ilmiy tavsiflash, epik sujetlarning har bir davrdagi tarixiy-folkloriy jurayonga xos xususiyatlarni tashuvchi manba sifatidagi belgilari yoritib berilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchilligi tahlilga tortilgan faktik materiallarning birlamchi nazariy manbalar hamda ishonchli nashrlar asosida tadqiq etilganligi, tadqiqot natijasida chiqirilgan xulosalarning qiyosiy-tarixiy tahlil usuli bilan asoslanganligi, yechilishi lozim bo'lgan ilmiy muammoning aniqligi, yozma manbalardagi epik sujetlar qiyosiy tavsiflanganligi, ularning

tadrijiy rivoji, o'zbek folkloridagi o'ziga xos talqinlari bevosita birlamchi manbalar asosida aniqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, chiqarilgan nazariy umumlashmalar va xulosalar o'zbek folklori janrlar tizimining shakllanish tarixi va badiiy evolutsiyasi bilan bog'liq ilmiy konsepsiyalarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, turkiy xalqlar folklorida epik janrlarning tabiatini, tarixiy-genetik asoslari va poetikasini fundamental tadqiq etishda muhim manba vazifasini o'taydi.

Mazkur dissertatsiyaning amaliy ahamiyati universitet va pedagogika institutlarida turkiy xalqlar qahramonlik episi va epik sujet bilan bog'liq sujet ko'rsatgichlari katalogini yaratishda, "Turkiy xalqlar folklori", "Folklor nazariyasi", "Folklor janrlari tarixiy taraqqiyoti" fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini tuzishda, darslik va o'quv qo'llanmalarining yangi avlodini yaratishda va takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek folklori epik sujetining badiiy evolutsiyasi, epik sujetning an'anaviylashish jarayonlari va uning muhim xususiyatlari, uning tarkibidagi asosiy motivning genezisi borasidagi masalalarni yoritish bo'yicha olingan natijalar quyidagi yo'nalishlarda joriy qilingan:

"O'g'uznoma" sujeti va uning "Shajariyi tarokima" dagi talqini (2013), "Kitob ul-qand fi-t-tarixi samarqand" dagi o'zbek xalq toponimik rivoyatlari (2014), "Beruniyning "Osor al-boqiya" asaridagi mifologik afsonalar va epik sujetlar evolutsiyasi" (2014), "Yozma manbalarda qorluqlar bilan bog'liq etnonimik rivoyatlar" (2015), "Qipchoqlar haqidagi etnonimik rivoyatlarning o'rta asr yozma manbalaridagi epik talqiniga doir" (2016) kabi ilmiy maqolalaridagi o'zbek folklori epik sujetlarining badiiy evolutsiyasi bilan bog'liqligiga doir ilmiy-nazariy qarashlaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan "O'zbek mifologiyasi va uning badiiy tafakkur taraqqiyotida tutgan o'rni" mavzusidagi 2012-2016-yillarda bajarilgan F1-XT-0-19919 raqamli fundamental ilmiy loyihasini bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 7-iyuldagi 04/1-2273-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek folklori epik sujetining badiiy evolutsiyasini aniqlash bilan bog'liq vazifalar ijrosini ta'minlashga xizmat qilgan;

O'rta Osiyo tarixiga oid qadimgi yozma manbalar, xususan, yunon, arab, fors, xitoy tillarida yaratilgan tarixiy asarlar, shuningdek, o'rta asrlardan e'tiboran turkiy tilda bitilgan tarixiy, jo'g'rofiy va ilmiy adabiyotlardagi folklor materiallarining talqini masalasiga doir materiallar va ilmiy-nazariy qarashlaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida 2018-2020-yillarda bajarilgan F1-XT-0-19919 raqamli "Qadimgi davrlardan XIV asrgacha bo'lgan turkiy yozma manbalar tadqiqi" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 25-apreldagi 04/1-779-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek folklorshunosligi tarixida birinchi marta O'rta

Osiyo tarixiga oid yozma manbalar hamda o'rta asr mualliflarining tarixiy-jo'g'rofiy asarlaridagi folklor materiallarini qiyosiy tavsiflashga yo'l ochgan;

O'zbek folkloridagi yetakchi motivlar, epik sujetlarning genezisi, manbalari, tarixiy asoslari va ilk shakllari jahon xalqlari epik sujetlarini qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganish asnosida badiiy tafakkurning tarixiy asoslarining ajdodlarimiz ma'naviy merosida tutgan muhim o'rni haqidagi natijalaridan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Jizzax viloyati bo'limidagi adabiy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va ijodiy uchrashuvlarda, yosh ijodkorlar bilan tashkil etilgan "Jizzax oqshomlari" kabi uchrashuv va uyushma tomonidan tashkillashtirilgan targ'ibot ishlarida samarali foydalanilgan (Yozuvchilar uyushmasining 2021 yil 2 noyabrdagi 01-03/1295-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek folklori epik sujetlarining badiiy evolyusiyasi, genezisi, o'ziga xos xususiyatlari yosh ijodkorlarning o'zbek xalq dostonchiligi borasidagi fikrlarini shakllanishi va badiiy-estetik tafakkurining o'stirishdagi o'rnini ko'rsatishga erishilgan;

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob maxsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorida keltirilgan vazifalarning bevosita ijrosiga qaratilgan tadqiqot sifatida o'zbek folklorining epik janrlariga mansub asarlar uzoq asrlar davomida yaratilib, jonli og'zaki ijro orqali ommalashishi natijasida takomillashib, ba'zida u yoki bu uzvlarini yoritib, gohida "sayyor sujet"lar hamda boshqa xalqlar folklorining ijodiy ta'sirida yangilangani haqida hozirgi ma'naviy-madaniy taraqqiyotda tutgan o'rni va ahamiyatiga doir tahliliy umumlashmalaridan Jizzax viloyati Madaniyat bo'limi tomonidan tashkil etilgan festivallarda, turli madaniy tadbirlarni tashkil etishda foydalanilgan. Natijada turli tanlov va festival qatnashchilari hamda yoshlarga qadim va navqiron yurtimizning boy va turfa xil qadriyatlarini tanishtirish borasida keng tushuncha va ma'lumotlar berishga erishilgan;

O'rta Osiyoga oid yozma manbalardagi folklor materiallarini ilmiy tavsiflash, epik sujetlarning har bir davrdagi tarixiy-folkloriy jarayonga xos xususiyatlarni tashuvchi manba sifatidagi belgilari yoritishga bag'ishlangan ilmiy qarashlardan Jizzax viloyati teleradiokompaniyasining "Diyor yangiliklari" informatsion dasturida, shuningdek, "Jizzax" radiokanali orqali "Xabarlar" eshittirishida foydalanilgan (Jizzax viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 14-martdagi 10-12/168-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallar mazmun jihatdan mukammallashtirilib, ilmiy dalillarga boy bo'lishiga, ko'rsatuvning ilmiy-ommabopligini ta'minlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 4 ta xorijiy, xalqaro 7 ta respublikada qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish nashr qilingan bo'lib, shulardan bitta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola,

shundan 10 tasi respublika hamda 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Umumiy hajmi 233 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning joriylanishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Paleofolklor, sak-massaget eposi va epik sujetlar genizisi"** nomli birinchi bobining ilk fasli **"Paleofolklorga xos xossalar. Sak-massaget eposi an'alarining o'zbek dostonlari sujet qurilishidagi o'rni"**ni o'rganishga bag'ishlangan.

Folklorshunoslikdagi "paleofolklor" atamasi muayyan xalq og'zaki badiiy ijodining eng qadimgi qatlami, ya'ni o'sha etnosning ajdodlari tomonidan yaratilgan arxaik folklorga nisbatan qo'llaniladi. Qadimgi odamlar badiiy tafakkurining mahsuli hisoblangan paleofolklor o'zining asl holda bizning kunlarga yetib kelmagan, albatta. Tarixiy-folkloriy jarayonning izchil taraqqiy etishi davomida ajdodlarimizning folklor an'analari bevosita og'zaki jonli ijro orqali yashashda davom etgan bo'lsa-da, xalqning badiiy-estetik qarashlari, turmush tarzi, ijtimoiy-madaniy hayotning rivojlanib borishi natijasida muttasil o'zgarishga uchrab, ayrim uzvlarini yo'qotib, ba'zilarini boyitib, to'ldirib, yangi asarlarning yaratilishiga zamin bo'lib kelavergan. Shuning uchun ham hozirga qadar yozib olingan yoki jonli ijro holatini saqlab kelgan folklor materiallari orasida qadimgi davr folklori bilan bevosita bog'lanuvchi u yoki bu epik sujetni topish anchayin mushkul ishdur. Folklorning mohiyati va uning xalq ma'naviy-madaniy hayotidagi o'rnini to'la anglash uchun esa uning tarixiy asoslari, ya'ni zaminini yaxshi bilish g'oyat muhim ahamiyatga ega. Bu esa paleofolklorni chuqur o'rganish, ya'ni xalq og'zaki ijodidagi an'anaviy epik sujetlarning eng qadimiy namunalarini rekonstruksiya qilish orqali folklorning arxaik qatlamiga xos xususiyatlarni aniqlashni taqazo etadi.

Paleofolklorni tadqiq etishda o'tmishda yaratilgan yozma manbalar, arxeologik materiallar, qadimgi mifologiya, urf-odat va marosimlarda saqlanib qolgan etnofolkloristik talqinlar ham muhim ilmiy qimmatga ega. Chunki qadimgi davr folklori namunalari yoki uning muayyan sujet, motiv yoki obrazlari o'tmishda yaratilgan yozma yodgorliklar va moddiy madaniyat yodgorliklari (qoyatoshlarga chizilgan suratlar – petrogliflar, gil, tosh yoki yog'ochdan yasalgan haykalchalar, turli arxeologik topilmalar va h.k.)da ham o'z ifodasini topganligi ilmiy manbalarda qayd etilgan. Shuning uchun ham o'zbek folklori epik sujetlarining badiiy evolutsiyasiga doir ilmiy izlanishlar olib borishda paleofolklor namunalarini o'zida saqlab qolgan yozma manbalardagi materiallarni tahlilga tortish yaxshi samara beradi.

Qadimgi va o'rta asr yozma manbalarida o'z ifodasini topgan arxaik folklor namunalari xalq og'zaki poetik ijodidagi epik sujetlarning kelib chiqish tarixi, manbalari, shakllanish jarayoni va badiiy evolutsiyasi jarayonini o'rganishda muhim ilmiy qimmatga ega. Yozma yodgorliklar orqali yetib kelgan paleofolklor namunalari ahamiyati shundaki, bu materiallar muayyan epik sujetlarning bir necha asr, hatto, bir necha ming yillik taraqqiyoti bosqichlarini qiyosiy o'rganish sujet tarkibidagi motivlar va obrazlar silsilasining o'zgarishlari, epik diffuziya va transformatsiya jarayonlarini aniqlashga asos bo'ladi.

Tadqiqotning ikkinchi fasli esa "Sak-massaget eposi va uning badiiy takomili" deb atalgan. Bunda sak – massaget eposining badiiy tafakkur tadriji davomida shakllanish bosqichlari va hozirgi o'zbek eposidagi aksi masalalari tadqiq etildi.

Sak va massagetlar yashagan davrdan hozirgi kunga qadar orada juda ko'p vaqt o'tganiga qaramay, garchi muayyan rudiment va qoldiqlar tarzida bo'lsa-da, ularning arxaik eposi bilan bog'liq sujet, motiv va obrazlar Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan, o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodida hamon saqlanib kelayotganligi sak-massaget epik an'anasi naqadar ko'lamdor va sujetlarga bo'yolganligini ko'rsatadi.

Gerodot tomonidan naql qilingan sak-massaget eposi sujetlaridan birida hukmdor Kirning tug'ilishi haqida shunday hikoya qilinadi: "Shoh Astiagning bir qizi bor bo'lib, uning ismi Mandana ekan. Kunlardan bir kuni shoh g'aroyib tush ko'ribdi: tushida uning qizi shu qadar ko'p peshob qilibdiki, oqibatda shahar g'arq bo'lib, butun Osiyo suv ostida qolibdi. Saroydagi ta'burchilar: "Shohim, bu tushingiz karomatli ekan. Qizingiz Mandana bir o'g'il farzand ko'radi, shu bola ulg'aygach butun Osiyoni o'z tasarrufiga olguvchi sohibqiron bo'ladi", – deb yo'ribdilar. Bunday nevarasi tug'ilib, oxir-oqibat saltanati qo'ldan ketishidan qo'rqqan Astiag qizini turmushga berishni istamabdi. Ammo qizi voyaga yetgach, uni midiyalikka uzatishni xohlamay, Kambis degan bir eronlik yigitga uzatibdi. Oradan bir yil o'tar-o'tmas Astiag yana bir tush ko'ribdi: tushida qizi Mandananing qornidan o'sib chiqqan tok novdalari butun Osiyoni chulg'ab olibdi. O'z tushidan o'zi cho'chib uyg'ongan shoh yana ta'burchilarini huzuriga chorlabdi va farzand kutayotgan qizi istiqomat qiladigan Eronga odam yubortirib: "Men borgunimcha qizimni bir joyga qamab, tashqariga chiqarmay turinglar!" deb amr qilibdi. Ta'burchilar shohning qizidan tug'ilajak bola uning o'rniga taxtga o'tirib, Osiyoga hukmdor bo'lajagini bashorat qilishibdi¹⁷.

Kirning tug'ilishi haqidagi rivoyatning Gerodot tomonidan naql qilingan bu namunasidagi tush motivi jahon xalqlari folklorining epik janrlari uchun an'anaviy sujet elementlaridan biri hisoblanadi. Podsho Astiagning tush ko'rishi va ana shu tush ta'biri kelgusida qahramonlik ko'rsatadigan botir hukmdorning tug'ilishidan bashorat beradi. Ayni shu motiv o'zbek folklorida ham mavjud bo'lib, uning o'ziga xos talqini "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonining Egamberdi Ollomurod o'g'li variantida uchramiz. Dostonda tsvirlanishicha, bir kuni Shohdarxon uxlab yotgan yerida tush ko'radi. Tushida bir qarchig'ay kelib boshiga tepadi. Uyquasi ochilib, yuragiga hovul tushib, podsho uyg'ona ketadi. Qur'achilarga qur'a

¹⁷ Геродот. История II 94m кн / Пер. Г. А. Сперанского. Т. 2. – М.: Лань, 2001. – С. 107-122.

tashlatadi, folchilarga fol ochtiradi, romchilarga rom ko'rsatadi. Lekin tushining ta'birini hech kim topolmaydi. Shunda podshoning odamlari uzoq joydagi tog'da yashovchi bir kampirning zo'r ta'birchi ekanligidan xabar topib, uni podshoning huzuriga olib keladilar. Podsho kecha yotib tush ko'rganinini, tushida bir qarchig'ay kelib boshimga tepganligini aytganida "momosi o'rnidan turib, podshoga tomon yurib, yoniga o'tirib, tush ta'birini qur'ada ko'rib, momo tirjayib qari yuzi bujmayib, bir kulib podshoga tushning ta'birini berib:

– Aylanay podshoyim, elingizda yaqinda bir sohibqiron paydo bo'libdi. Uni askarlar chetdan olib kelibdi. Otini Ravshaxon deydi. Yovmit elidan bo'lib, Buvraxon podshoning avlodidandir. To'liboy deganning uli ekan. Ravshaxon yetti yoshda ekan. Qosimbek otli qabilaboshing Ravshaxonni ul qilaman deb ota-enasining uyidan pinhona o'g'irlab, uyiga olib kelibdi. Qabilaboshi etagiga solibdi, xotini yoqasidan tashlab, etagidan olibdi. Ikkalasi iskasam gulim, qafasda bulbulim, so'rsam bolim, dedi. Ravshaxonga uch kokil qo'ydi. Bir kokilga kumush, biriga tilla, biriga mushki anbar suvini berdi. Kuniga besh marta buzib, besh marta o'rdi, birini oyday, birini kunday qilib orqasiga tushirib qo'ydi. Kunduz sandiqqa solib, kechasi eshikni bekitib, tizzasiga olib o'ynatib o'tiradi. Ana shu Ravshaxon elingdan, aylanay, bir xotin oladi, undan bir o'g'il ko'radi. Otini Go'ro'g'li qo'yadi. Mamlakatingni Go'ro'g'li oladi. Hamma amaldorlaringni o'z yo'liga soladi. Tushingni ta'biri shul, – deydi".¹⁸

Ko'rinadiki, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonidagi Shohdorxonning g'aroyib tush ko'rishi va bu tushida doxil bo'lgan qarchig'ay ta'burchilar tomonidan Ravshaxon bilan Hiloloydan tug'ilajak farzand sifatida talqin qilinishi bilan bog'liq voqealar mohiyatan Gerodot hikoya qilgan Kirning tug'ilishi to'g'risidagi rivoyatga o'xshab ketadi. Gerodotning yozishicha, podsho Astiag qizidan tug'ilajak bola kelgusida sohibqiron bo'lib, uning taxtini egallashi haqidagi bashoratni eshitgach, bolani yo'q qilish payiga tushadi. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonining Egamberdi Ollomurod o'g'li variantida ham ayni shu holatni ko'ramiz. Shohdorxonning zulmiga chidayolmagan Ravshan ikkiqat xotini Hiloloyni tashlab, qaynag'asi Gajdumbek bilan o'zining yurtiga qochib ketganidan keyin bir kuni Shohdorxon podsho o'zicha o'ylaydi: "Men bir tush ko'rdim, tushimning ta'birini jo'latuvdim. Ravshan degan sohibqiron bor deb aytibidi. Elingdan bir xotin oladi. Undan bir ul paydo bo'ladi. Otini Go'ro'g'li qo'yadi deb aytibidi. Aytgan so'zining bari to'g'ri keldi. Katta-kichini jiysam, daryobotga borsam, ko'p o'tinni jiysam. Hilolni shu o'tinning ustiga qo'yib, tagidan olov bersam. O'tga kuydirib, Hilolni yo'q qilib yuborsam"¹⁹.

Kirning tug'ilishi haqidagi qadimgi yunon manbaidagi rivoyatda podshoh Astiag nevarasini o'ldirish haqidagi buyruqni o'zining yaqin kishilaridan biri Garpag degan amaldoriga topshiradi. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonining Egamberdi Ollomurod o'g'li variantida esa qahramonning tug'ilishi va tarbiyalanishi bilan aloqador voqealar tafsilotida Rustambek obrazi ishtirok etadi. Rustambek Gajdumbekning og'aynisi edi, Shohdorxonning Hiloloyni yo'q qilish

¹⁸ "Гуруғлининг туғилиши" дostonи. Айтувчи: Эгамберди Олломурад ўгли. ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти. ЗУФА. Инв.№1461.

¹⁹ O'sha manba. ЗУФА. Инв.№1461.

haqidagi maslahatida qatnashib, qanday qilib bo'lsa-da, do'stining singlisini bu falokatdan omon saqlab qolishni ko'ngliga tugib qo'ygan edi. Ammo Hiloloyning huzuriga borib, bu xavfdan ogoh etganida u qochib ketishga unamaydi. Rustambek noiloj ichiga qaytgandan keyin "Burqisarmas qalandar Hilolning oldiga keldi. Hilolning oldiga kelib, o'ng tomonidan bilagidan ushladi. Rakasak degan kasalni Burqisarmas xudodan tiladi. Kasalni burnidan iskatdi, shunda Hilol o'zidan ketdi. Odamzotning ikkita ruhi bo'lar ekan. Bittasini ruhi gavhari, bittasini ruhi hayvoni der ekan, ruhi hayvoni chiqib ketdi. Hiloloy o'zini bilmay qoldi. Hilolning ustiga joynamozni kafan qilib yopib, Burqisarmas qalandar dalaga chiqib ketdi".

Gerodotning Kirning tug'ilishi haqidagi rivoyatida Astiagning rahmdil cho'pon tufayli omon qolgan nevarasi Mitradat oilasida o'sib voyaga yetgani kabi Ravshanbek bilan Hiloloyning go'rda tug'ilgan farzandi Go'ro'g'li ham Gajdumbekning og'aynisi Rustamxonning xonadonida ulg'ayadi. Asli hoqon zurriyodidan bo'lganligi uchun Kir o'n yoshga to'lganida bamisoli navqiron yigitlarday kuchli, baquvvat va aqlli bo'ladi. Egamberdi Ollomurod o'g'li ta'rificha, "Go'ro'g'li sherni, odamzotni ham yilqini emgan. Sherning kuchini olgan, shuning uchun Go'ro'g'li kuchli bo'lgan. Hamma tilga Go'ro'g'li tushadi".

Xatirchilik Egamberdi Ollomurod o'g'lidan yozib olingan "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida epik qahramon o'yinda g'irromlik qilgan bolaning qo'lini sug'urib olishi motivi Gerodotning "Tarix" asarida naql qilingan epik rivoyatda bolalar tomonidan podsho etib saylangan Kirning o'z amriga bo'ysunmagan (ya'ni o'yinbuzuvchilik qilgan) boyvachcha bolani qamchi bilan savalashi motiviga o'xshab ketadi. Har ikki holatda ham bolaning jazolanishi o'yin voqealari bilan bog'lanib ketadi. Gerodotning hikoya qilishicha, bolasini bir cho'ponning farzandi xo'rlaganiga chiday olmagan Artembar podsho Astiagning huzuriga arzga boradi. Bu motiv "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida ham mavjud bo'lib, o'ziga xos tarzda bayon etilgan.

Ikki yarim ming yillik tarix davomida O'rta Osiyo hududida yashovchi etnoslar o'zining tili, madaniyati va an'alarini muttasil o'zgartirib, o'zbek xalqining shakllanishi jarayonidagi g'oyat murakkab etnogenetik jarayonlarni boshidan kechirganligi tufayli sak-massaget epik an'analari bilan hozirgi o'zbek baxshilari ijodiyoti o'rtasida bevosita aloqadorlik saqlanganligini isbotlash qiyin, albatta. Lekin xalq dostonchiligining yaratilishi, taraqqiyoti va rivojlanishini ta'minlaydigan eng muhim omillardan biri – epik bilim va epik xotiraning shakllanishida qadimgi epik an'alar, xususan, sak-massaget arxaik episi ham muhim rol o'ynagan. Gerodotning "Tarix" asarida keltirilgan Kirning tug'ilishi va bolaligi to'g'risidagi rivoyat bilan "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonining Egamberdi Ollomurod o'g'li variantining sujeti orasidagi struktural-semantik mushtaraklik, motivlar tizimining o'xshashligi epos namunasining yuzaga kelishiga asos bo'lgan prosujet bevosita sak-massagetlar folklorida shakllangan.

Siraq qadimgi sak-massaget qabilalari birlashmasi tarkibiga kirgan urug'lardan birining nomidir. Sak qabilalari (shu jumladan, siraqlar ham) esa o'zbek xalqining qadimiy ajdodlari sirasiga kirganligi uchun o'zbek etnonimlari orasida "siyroq" atamasi saqlanib qolgan. Sak-massaget qabila birlashmasining yirik urug'laridan biri hisoblangan siraqlarning jasorati va qahramonliklari

tasvirlangan “Shiroq” (yoki “Siraq”) rivoyati o‘zbek folklorining arxaik qatlamiga mansub epik sujetlar sirasiga mansub.

To‘maris haqidagi qadimiy epik sujet sak-massaget qabilalarining folklor an’analari doirasida shakllangan bo‘lib, ushbu sujet asosiga qurilgan tarixiy qo‘shiq, rivoyat va dostonlarda ajdodlarimizning o‘z yurtini bosqinchi dushmanlardan himoya qilish maqsadida olib borgan mardonavor kurashi hamda ana shunday hayot-mamot janglarda qahramonlikda erkaklardan qolishmagan alp xotin-qizlarning mislsiz jasorati tasvirlangan. To‘maris to‘g‘risidagi ko‘hna eposning Gerodot “Tarix”ida keltirilgan mazmuni tarkibidagi bir qator epik sujetga xos an’anaviy motivlar sak-massagetlar folklorida To‘maris jasorati tasviriga bag‘ishlangan yirik epik asar bo‘lganligi va u qahramonlik eposining arxaik tipiga mansub ekanligidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Arxaik eposning turkiy yozma manbalaridagi talqini” deb nomlangan bo‘lib, uning birinchi fasli “Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar va mifologik epos”ni o‘rganishga bag‘ishlangan.

“O‘g‘uznoma” turkiy xalqlar poetik dahosining nodir yodgorliklaridan biri bo‘lib, og‘zaki va yozma adabiy an’ana taraqqiyotiga g‘oyat kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Turkiy xalqlar eposining qadimiy namunalaridan biri “O‘g‘uznoma”ning sujet asoslari arxaik mifologiyaga borib taqaladi. O‘g‘uzlarning eng qadimgi ajdodi haqidagi etnogenetik miflar sujetining epik transformatsiyasi natijasida X-XI asrlarda Sirdaryo bo‘ylarida yirik epik asar – “O‘g‘uznoma” yuzaga kelgan. O‘sha davr xalq dostonlarini kuylovchi epik kuychilar – baxshi, jirov va o‘zonlar repertuaridan o‘rin olgan bu asarning bir necha variantlari shakllangan.

“O‘g‘uznoma” qadimgi turkiylar folkloridagi mifologik sujetlar asosida yaratilgan. Shuning uchun ham, “O‘g‘uzxon haqidagi bu doston – geneologik mif asosiga qurilgan epik asar” hisoblanadi. Dastlab xalq eposi namunalarini ijro etuvchi epik kuychilar tomonidan og‘zaki tarzda ommalashtirib kelingan bu asar keyinchalik yozuvga ko‘chirilib, yozma manba sifatida yetib kelgan bo‘lsa-da, uning asosiy motivlari turkiy xalqlar folkloridagi ko‘plab epik sujetlar hamda geneologik afsona va rivoyatlarning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan. Shuningdek, O‘rta Osiyo tarixnavisligida muayyan shajara yoki sulola tarixini “O‘g‘uznoma” sujeti va unda hikoya qilingan mifologik afsonalarga asoslangan holda yozish an’anasining mavjud bo‘lganligi ham bu asar juda katta tarixiy-adabiy manba vazifasini o‘taganligidan dalolat beradi.

Turkiy xalqlar folklorshunosligida “O‘g‘uznoma” sujetining mifologik asoslari, asosiy motivlari, obrazlar tarkibi hamda o‘g‘uz epik an’anasi rivojida tutgan o‘rniga doir bir qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan.²⁰ Ammo mazkur sujetning tarixiy-adabiy manbalardagi talqinlari va bayonlari qiyosiy-tipologik

²⁰ Сејидов М. Азәрбајан мифолоҗи тафәкүрүнүн қайнағлары. – Баку: Элм, 1989. – Б.38; Бекмуратов А. Героглынын ызлары. – Ашхабад, 1988. – Б.45; Козалов (Баят) Ф.Х. Оғуз елик энәнеси ва “Оғуз қаған” дастаны – Баку: Сабан, 1993; Яна о’ша. Оғуз дастаны: тарихи-мифолоҗи көкларн, ташәккүл, спесификасы: Автореф. докт. ... дисс. – Баку, 1997. – 250 с.; Жураев М. “Оғузнама” и древнетюркская мифология / Сюжет “Оғузнама” как исторический и культурный источник. Материалы международной научной конференции. – Ашхабад, 2010. – С. 221-222; Яна о’ша. “Оғузнаме” и древнетюркская мифология // Мирас. – Ашхабад, 2011. – №1. – С. 24-37.

jihatdan o'rganilgan emas.

“O'g'uznoma”ning uyg'ur yozuvidagi namunasi “*Bolsung'il deb dedilar. Anuñ añaq'usu oshbu turur. Takı mundan soñ sevinch taptılar. Kenā kınlārdān bir kın Ai kag'annuñ kōz'y jarib bodadı, erkāk og'ul tog'urdi*”²¹ jumalari bilan boshlangan. O'g'uzxonning onasi “Oy-kog'on” deb atalishining o'zi uning tug'ilishi motivi samoviy-kosmogonik mif asosida bayon qilinganligini ko'rsatadi. Asarning boshidagi “*Anuñ añaq'usu oshbu turur*” jumlasidan keyin «buqa» tasviri berilganligi esa, O'g'uzxonning tug'ilishi motivi totemistik tasavvurlar asosida tasvirlanganligidan dalolat beradi. Chunki Yaqin Sharq va O'rta Osiyoda neolit davridayoq buqa bilan bog'liq totemistik e'tiqodlar mavjud bo'lgan.²² Bu o'rinda “Oy-kog'on” - butun olamdagi moddiy mavjudlik, shu jumladan, odam naslining ilk ajdodi, ya'ni “Muqaddas ona-ajdod” obrazining mifologik talqini bo'lsa, “buqa” detali olam yaratilishining totemistik timsolidir.

“O'g'uznoma”da tasvirlanishicha, Oy-kog'onning o'g'li g'ayrioddiy yo'sinda tez ulg'aygan: u qirq kunlik bo'lganda yurib, o'ynay boshlagan. Uning “*adag'i ud adag'i dag*”, ya'ni “oyog'i buqa oyog'iday” edi. Epik qahramonning oyog'i buqa oyoqlariga o'xshatilishi hamda uning “*bāddniniñ kamag'i tıg tılyklyg erdi*”, ya'ni “Badanining hamma joyi tuk bilan qoplangan edi” deb ta'riflanishi totemistik tasavvurlar bilan aloqador bo'lib, qadimgi turkiylar mifologiyasidagi “sigir oyoqli qavm” to'g'risidagi asotiriy qarashlar ham shu asosda kelib chiqqan. Chunonchi, turk olimi Abdulqodir Inonning yozishicha, XIII asrda mo'g'ullar o'lkasiga safar qilgan Plano Karpini o'z yo'lnomasida “it boshli, sigir oyoqli bir qavmga duch kelganligi”ni qayd qilgan.²³ Ulug' muarrix Abulg'oziy Bahodirxon ham jang-savash lavhalaridan birini tasvirlar ekan, it boshli, sigir oyoqlidan boshqa kimki bo'lsa, barisi shu yerda”, – deb yozadi²⁴. Bizningcha, qadimgi turkiy mifologiyadagi sigir oyoqli yoki ayrituyoq personajlar obrazining kelib chiqishi O'g'uzxon to'g'risidagi totemistik miqlar bilan bog'liqdir.

San'atshunos olim L.I.Rempelning ma'lumotlariga ko'ra, qadimgi O'rta Osiyo mifologiyasida buqa ilohiy-totemistik tabiatga ega bo'lgan jonivor sifatida tasavvur qilinganligi sababli miloddan burungi II ming yillikdan to Kushonlar hukmronligi davriga qadar oltin va toshdan yasalgan buyumlarda uning tasvirini ifodalash o'ziga xos an'ana bo'lib kelgan. Chunki qadimgi mifologiyada “buqa” (ho'kiz) obrazi erlik timsoli va serhosillik manbayi²⁵ sifatida tasavvur qilingan.

Bizningcha, “O'g'uznoma”ning uyg'ur yozuvidagi namunasi astral-totemistik timsol sifatida tasavvur qilingan ilohiy qudratning mo'jizaviy nur

²¹ Щербак А.Н. Огуз-наме. Мухаббат-наме. Памятники древнеуйгурской и староузбекской письменности. – М.: Изд-во Восточной литературы, 1959. – Б. 22 (Биз «Огузномадан олгини шарчаларни беришда А.М.Щербак томонидан қўлланилган транскрипциядан фойдалашини»).

²² *Bu haqda qarang:* Массон В.М. Образ небесного быка в эпоху бронзы // Памятники Туркменистана. – 1975. – №2(20); Беленицкий А.М. Изображения быка на памятниках искусства древнего Памиджикента (к истории зооморфизма в древнем изобразительном искусстве Средней Азии) // Этнография и археология Средней Азии. – М.: Наука, 1979. – С.88-94; Хлопкин И.И. Образ быка у первобытных земледельцев Средней Азии // Древний Восток и мировая культура. – М.: Наука, 1981. – С. 26-30; Қариматов Ҳ. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. – Тошкент: Жаҳон иқтисодидоғри ва фарҳангидоғри уюмларидоғри, 2008. – Б. 104-105.

²³ Inan A. It bashi ulus cfsancasi // Turk tarih kushini Belleteri. C XIII 1949, sayı 49.

²⁴ *Bu haqda qarang:* Ogel B. Turk mitolojisi (Kaynakları ve Açıkhıları ile Lektanlar). – Ankara, 1995. – S. 537.

²⁵ Ремпель Л.И. Цепь времен. Вековые образы и феномены культуры в традиционном искусстве Средней Азии. – Ташкент: Литература и искусство, 1987. – С. 72.

sifatida namoyon bo'lishini tasvirlash bilan boshlangan. Oy-kog'onning nurdan homilador bo'lishi esa qadimgi turkiy mifologiyadagi g'ayrioddiy tug'ilish motivining an'anaviy talqinlaridan biridir.

"O'g'uznoma"da epik qahramonning ilk bahodirlik ko'rsatishi, ya'ni "alp atalish" motivi ham o'ziga xos tarzda ifodalangan. Asarda tasvirlanishicha, O'g'uzxon "yilqilarni ko'tarib", "uchqur otlarni minib", "kiyiklarni ovlab" yurgan vaqtda bir katta o'rmon bor edi. Bu o'rmonda katta daryolar, ekinzorlar ham bor bo'lib, u yerda turli jonivorlar va qushlar ham yashar edi. Ammo ana shu o'rmonda yashaydigan bir qiat degan maxluq yilqilarni va odamlarni yeb, hech narsaga kun bermas edi. O'g'uzxon odamlarni ana shu qiatdan xalos qilmoqchi bo'lib, o'rmonga otlanadi. U bir ohuni tutib, tolchiviq bilan daraxtga bog'lab ketadi: ertasi kuni qiat ohuni yeb ketganligini ko'radi. Keyin bir ayiqni tutib oladi va o'zining oltin-javohirlar bilan bezatilgan belbog'i bilan kattakon daraxtga bog'lab ketadi. Qiat ayiqni ham yeb ketadi. Ana shunda O'g'uzxonning o'zi o'sha daraxt tagida turib, qiatning kelishini kutib turadi va uning boshiga nayza sanchib o'ldiradi.

O'g'uzxonning qiat bilan jangi bo'lib o'tgan joy – daraxt yonida bo'lishi ham mifologik mohiyatga ega. Chunki bu o'rinda daraxt qadimgi turkiy mifologiyada uch olam tutashadigan nuqta – "hayot daraxti"ning timsolidir. Epik qahramonning mifologik mavjudot bilan jang qilishi - ilk bahodirlik motivi xalq eposining an'anaviy poetik elementlaridan biri – uchlik mezoni asosida tasvirlangan. Ya'ni O'g'uzxonning qiatni qo'lga tushirish uchun qilgan harakati uch marta takrorlanadi. Muayyan xatti-harakat yoki motivning uch marta qaytarilishi, ya'ni uch takror usuli turkiy xalqlar eposining qadimiy poetik an'alaridan biri hisoblanadi. "O'g'uznoma"da ham an'anaviy uch takror motivi faol qo'llanilgan.

Epik qahramon tomonidan qiatning o'ldirilishi motivi qadimgi turkiy qavmlar turmushida muhim o'rin tutgan sinov-initsiatsiya marosimlari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan motivdir. Ma'lumki, bunday initsiatsiya marosimlari muayyan qavm yoki urug' a'zolari hisoblangan o'g'il bolalarni bir yosh-tabaqa mansubiyatidan boshqasiga o'tkazish vazifasini bajargan. Tahlil qilinayotgan epik asarda "ilk bahodirlik" motividan keyin epik qahramonning uylanishi bilan bog'liq lavha tasvirlanishi ham "O'g'uznoma" sujetining shakllanishida qadimgi turkiylarning ritual miflari ham muhim rol o'ynaganligidan dalolat beradi.

Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi tarokima" asarida naql qilingan "O'g'uznoma"ning "Bug'raxonning xon bo'lganining zikri" nomli faslida jahon xalqlari eposi, shu jumladan, turkiy xalqlar dostonlarida ko'p uchraydigan an'anaviy sujetlardan biri – qahramonga o'gay onasi oshiq bo'lib qolishi va ta'qib qilinishi mavzusining o'ziga xos ifodasini ko'ramiz.

"Shajarayi tarokima"da hikoya qilinishicha, Qoraxon podsho vafot etganidan keyin uning o'rniga o'g'li Bug'rani xon qilib ko'taribdilar. Bug'raxonning uch o'g'li bor bo'lib (xalq ertaklarining obrazlar tizimiga xos an'anaviy uchlikning o'ziga xos shakli), ularga El tegin, Qo'zi tegin va Bek tegin deb ism qo'yibdi. Bug'raxon qariganidan keyin podshohlikni o'rtancha o'g'ri Qo'zi teginga beribdi. Bu orada Bug'raxonning xotini vafot etibdi va oradan ancha vaqt o'tgach, avshar qavmiga mansub Egranj degan kishining go'zal qiziga uylantiribdilar.

Abulg'oziyning yozishicha, Bug'roxonga xotin qilib olib berilgan qiz uning o'g'li Qo'zi teginga oshiq bo'lishi, unga mayl bildirishi, shahzoda inkor etgach, unga tuhmat uyushtirishi Ammo Qo'zi teginning xotini hamda afshar qavmining ayollari uning gunohsizligini isbotlagi²⁶ motivi turkiy folklorida mavjud o'gay onaning o'g'liga oshiq bo'lishi va unga tuhmat qilishi bilan bog'liq an'anaviy epik sujetga borib taqaladi. Bu sujet dunyo xalqlari, shu jumladan, Sharq xalqlari folklorining an'anaviy va keng tarqalgan sujetlaridan biri hisoblanadi. Fazlulloh Rashid-ad-dinning "O'g'uznoma" asarini ilmiy izohlar bilan nashr etgan R.Shukurova Qo'ri teginga Bug'raxonning xotini oshiq bo'lib, tuhmat qilishi haqidagi hikoyaning qadimiy asoslari hind folkloriga borib taqaladi, deb hisoblaydi. Uningcha, hind-turkiy folklor aloqalarining taraqqiyoti natijasida mazkur sujet "O'g'uznoma" tarkibiga singib ketgan.²⁷ Chindan ham bu sujet hind folklorida mavjud bo'lib, podsho Ashokining o'g'li shahzoda Kunala haqidagi afsonalardan birida Shimoliy Hindistondagi Maksile va Udisane degan joyda o'gay onaning o'g'liga oshiq bo'lishi va tuxmatga uchragan yigit mashaqqatli sarguzashtlardan keyin o'zining pokligini isbotlashi naql qilingan.²⁸

Bizning nazarimizda, mazkur epik sujetning hind afsonasi tarzida qayd qilingan namunasi tipologik mushtaraklikning bir ko'rinishi, deb baholagan to'g'riroq bo'ladi. Chunki ushbu sujet O'rta Osiyo xalqlari folklorining qadimiy qatlamiga mansub sujetlardan biridir. Xususan, xalq orasida o'lib-tiriluvchi tabiat timsoli sifatida tasavvur qilingan mifologik personaj – Siyovush ham o'gay ona tuhmatiga uchragan qahramon sifatida tasvirlangan. U "o'gay onasining hayvoniy hirsini rad etgani uchun nohaq ayblangan Siyovush o't sinovidan o'tishi, ya'ni oltin dubulg'a kiyib, qora otda katta alanga ustidan sakrab o'tishi kerak edi. U o'tni yengib, o'z nomusini qaytadan tiklab oladi".²⁹ Epik qahramonning o'gay onaning tuhmatiga uchrashi motivi o'zbek xalq dostonlarida, jumladan, "Shirin bilan Shakar" dostonida ham uchraydi.³⁰

O'rta asr turkiy eposining yorqin namunalaridan biri hisoblangan "O'g'uznoma" sujetining yuzaga kelishi va takomillashib borishida qadimgi kosmogonik, totemistik va animistik miflar, shuningdek, xalq orasida keng ommalashgan turli-tuman mifologik ishonch-e'tiqodlar muhim rol o'ynagan.

Mazkur epik asarning arxaik namunasida mifologiyaning ta'siri ayniqsa, kuchli bo'lgan. Davrlar o'tishi bilan badiiy tafakkurning taraqqiy eta borishi natijasida mifologik motivlarning qadimiy namunalari badiiy-estetik vazifa bajaruvchi sujet elementlariga aylangan. Shunday bo'lsa-da, "O'g'uznoma"ning bizgacha yetib kelgan nusxalarida arxaik mifologiya talqinlari yaqqol ko'rinish turadi.

Qadimgi turkiy yozma manbalar, xususan, "O'g'uznoma"da bunday mifologik motivlarning ko'pligi bu asarning arxaik shakli "mifologik epos" tarzida

²⁶ Abulg'oziy. Shajarain tarokima / Nashrga tayёрlovchi Қ.Махамудов. – Тошкент: Чулпон, 1995. – Б. 32-33.

²⁷ Шукурова Р.М. Введение / Фазлаллақ Рашид-ад-дин. Огуз-наме. Перевод с персидского, предисловие, комментарии, примечания и указатели Р.М.Шукуровой. – Баки: Элм, 1987. – С. 9.

²⁸ *Yu haqda qarang:* Бонгард-Левина Г. М., Волкова О. Ф. Легенда о Кунале – М., 1963. – С.25.

²⁹ Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент: Фаи, 1964. – Б. 93.

³⁰ Ширин билан Шакар. Достон. Ҳозир Иўлдош угли варианты / Орзугул. Ўзбек халқ ижоди. Достонлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975. – Б. 14-15.

bo'lganligini ko'rsatadi.

Ikkinchi bobning "Qadimgi yunon yozma manbalari va epik sujet asoslari" deb nomlangan navbatdagi faslida qadimgi yunon yozma manbalari oraqli bizgacha yetib kelgan epik sujet sak va massaget eposi asosida tadqiq etildi. Folklorshunoslikda qadimgi skif qabilalari, shu jumladan, sak va massagetlarning eposi mavjud bo'lganmi, degan masala ancha paytdan beri turli munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. V.I.Abayevning fikricha, "Gerodot va boshqa mualliflar bizga shu qadar ko'p epos parchalari va sujetlarning rudimentlarini qoldirishganki, zamonlar o'tishi bilan bu manbalarda keltirilgan faktlarning mohiyati qanchalik xiralashgan bo'lmasin, epik ijod sarchashmasi skiflar diyorida bo'lganligidan dalolat berib turadi".³¹ Skiflar madaniyati, mifologiyasi va tilining tadqiqotchilari G.M.Bongar-Levin va E.A.Grandtovskiyning yozishicha esa, «shubhasiz, skiflar juda boy xalq ijodi an'analariga ega bo'lishgan, ularning o'ziga xos turmush tarzini aks ettiruvchi turli-tuman epik asarlar g'oyat keng tarqalganligiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Garchi qadimgi skif eposi bizgacha saqlanib qolmagan bo'lsa-da, uning izlarini aniqlashga qaratilgan izlanishlar istiqbolli tadqiqotlar sirasiga kiradi».³² Qadimgi skif mifologiyasi va folklor an'alarini arxeologik topilmalarda o'z ifodasini topgan sujetlar asosida tadqiq etgan B.N.Grakov,³³ M.I.Artamonov³⁴ tadqiqotlari ham sak va massaget eposi mavjud bo'lganligini tasdiqlaydi.

O'zbek folklorshunosligining asoschisi H.Zarifovning fikricha, "o'zbek xalq og'zaki ijodida sag va massaget eposi, ularning qahramonona jasoratlari madh etilgan ko'hna dostonlarining qoldiq holda yetib kelgan rudimentlari saqlangan".³⁵ Darhaqiqat, o'zbek xalq eposi taraqqiyotining ilk davri "sak eposi" deb bo'lib, bu davr miloddan avvalgi VIII – milodiy V asrlarni qamrab oladi.³⁶ Miletlik Gekatey (miloddan burungi VI asr), Strabon va Gerodot (miloddan burungi V asr) kabi mualliflar sak va massagetlarni Orolbo'yi mintaqasining asosiy aholisi deb e'tirof etishgan. Bu qabilalar birlashmasi Sharqiy Turkistondan Kavkazorti mintaqasigacha bo'lgan hududda yashagan sarmat, alan, as, daxa, apasiag, toxar, xorazmiy (Strabonning keltirishicha, atasiya va xorazmiylar ham massagetlardandir)³⁷, augasi, derbik, assian (ya'ni usun) kabi ko'pgina urug' va qabilalarni o'z ichiga olgan. Qadimgi yunon yozma manbalari, xususan, Gerodot, Polien, Ktesiy va boshqa muarrixlarning asarlarida naql qilingan ko'pgina afsona va rivoyatlar aslida sak va massaget qabilalarining eposi qoldiqlari hisoblanadi. O'sha davr ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyasining xarakteri va epik ijodiyotning yuzaga kelish va taraqqiyot qonuniyatlariga ko'ra ularning ilk qahramonlik

³¹ Абаев В.И. Скифо-европейские изоглоссы. – М.: Наука, 1965. – С. 85.

³² Бонгар-Левин Г.М., Грандтовский Э.А. В поисках скифского эпоса // Курьер ЮНЕСКО. – 1977. – №1. – С. 43.

³³ Граков Б.Н. Пережитки скифских религий и эпоса у сарматов // Вестник древней истории. – М., 1969. – №3. – С. 70-72.

³⁴ Артамонов М.И. Антропоморфные божества в религии скифов / Археологический сборник Государственного Эрмитажа. Вып.2. – Л., 1961. – С. 51-64.

³⁵ Зарифов Х. Аршак – халқ қахрамони // Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 3-киتاب. – Тошкент: Фан, 2011. – Б. 14-30.

³⁶ Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Достон, унинг турлари ва тарихий тараққиёти / Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 28-29.

³⁷ Древние авторы о Средней Азии. – Ташкент: Остехиздат, 1940. – С. 23.

qo'shiqlari hamda dostonlari arxaik epos darajasida bo'lgan. Sak va massagetlar istiqomat qilgan hudud bir mintaqada joylashganligi sababli ularning epik an'analari ham bevosita o'zaro ta'sir va ijodiy aloqalar fonida rivojlangan. Shularni hisobga olgan holda, dissertatsiyada o'zbek xalq qahramonlik dostonlarining tarixiy taraqqiyoti bosqichlarini tasniflash va davrlashtirishdagi ilk qatlamni "sak-massaget arxaik eposi" deb belgilash taklifi ilgari surildi. Sak-massaget eposining janrlar tarkibi asosan tarixiy-qahramonlik qo'shiqlari, tarixiy rivoyatlar, tarixiy va qahramonlik dostonlaridan iborat bo'lgan.

O'rta Osiyoda yashagan qadimgi ajdodlarimiz epik ijodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda yozma manbalar orqali yetib kelgan adabiy parchalar muhim ahamiyat kasb etadi. Gerodotning "Tarix"i, Poliennning "Harbiy hiylalar", sitsiliyalik Diodorning "Tarixiy kutubxona", Flaviy Arrianning "Aleksandrning yurishi", Kursiy Rufning "Aleksandr Makedonskiy tarixi", Strabonning "Geografiya", Klavdiy Ellianning "Ajoyib hikoyalar", Pompey Tron va Yustinning "Tarixiy kundaliklar" kabi asarlarida qadimgi davr eposi, xususan, qadimgi sak va massagetlar badiiy ijodiga oid ko'plab sujetlar saqlanib qolgan. Gerodotning «Tarix» asarida skiflarning qadimgi ajdodlari, Doroning skiflar diyoriga hujumi, tog'dagi oltinlarni qo'riqlovchi grifonlar va bir ko'zli mavjudotlar haqidagi afsonalar, shuningdek, «mifologik xarakterdagi hikoyalar»³⁸ uchraydi. Gerodot hamda vizantiyalik Faust tomonidan naql qilingan "ko'r qulning bolasi" haqidagi rivoyat qachonlardir skif eposida mavjud bo'lgan muayyan arxaik sujetning parchasidir. Fransuz olimi J.Dyumezil mazkur qadimiy rivoyat bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan "Go'ro'g'li" ("Ko'ro'g'li") dostoni sujeti o'rtasida muayyan aloqadorlik bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi gipotezani o'rtaga tashlab, "vizantiyalik Faust o'z asarini yozishda aslida ko'r shohning o'g'li bo'lgan hukmdorning qahramonliklari va ehtiyotsizlik tufayli halokatga mahkum etilishi to'g'risidagi xalq eposi namunalariidan foydalanganligini qayd qilgan edi.³⁹ Darhaqiqat, o'zbek xalq baxshilari repertuaridagi "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni bilan Gerodotning "Tarix" kitobida keltirilgan "ko'r qullar" haqidagi rivoyat sujeti bir necha nuqtalarda o'zaro uyg'unlik kasb etadi. Gerodot talqinicha, ko'zi ko'r qilingan kishilar qullardir; "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida ham Xunxorshoh amriga ko'ra qahramonning otasi Ravshanbek qul bozorida sotiladi; Gerodot rivoyatida ko'r qullarning mehnat faoliyati biya sutini aralashtirib chayqatishdan iborat (ya'ni o't detali bilan bog'liq)dir. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonining barcha variantlarida Ravshanbek "suyagidan tulpor naslini aniqlay oladigan" bilgich sinchi sifatida tasvirlangan. Ana shularning barchasi, qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning "Tarix" asarida keltirilgan "ko'r qullar" haqidagi rivoyat bilan "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonidagi Ravshanbekning ko'zlaridan judo bo'lishi voqealari tasvirlangan epik sujet o'zaro mushtarak negizga bog'lanishidan dalolat beradi.

Qadimgi sak-massaget eposiga aloqador epik sujetlarning tarixiy-folkloriy jarayon davomidagi badiiy evolutsiyasi natijasida o'zbek folklorida saqlanib

³⁸ Гойнларов Ф. Ўрта Осиёнинг антик даври. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б. 36

³⁹ Домезиль Ж. Легенды о "сыновьях слепых" на Кавказе и в Прикавказье // Этнографическое обозрение. – М., 1996. – №5. – С. 88, 91.

qolgan mavzularidan yana biri yakkako'z yoki bir ko'zli mifologik mavjudot obrazi bilan bog'liq sujettir. O'zbek folkloridagi «Yakka ko'z»,⁴⁰ «Dorop ko'z»⁴¹ afsonalari hamda «Kal osiyobon va tulki» ertagida⁴² bir ko'zli mifologik personaj – siklop obrazi o'zbek mifologiyasining qadimiy obrazlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Markaziy Osiyo turkiy xalqlari, shu jumladan, o'zbek folkloridagi bir ko'zli mavjudot obrazining tarixiy ildizlari qadimgi ajdodlarimiz – sak-massagetlarning mifologiyasi bilan bog'lanadi. Gerodot «Tarix»ining IV-kitobida «bir ko'zli odamlar va skiflar tillasini qo'riqlovchi griflar» haqida issedonlar hikoyasi keltiriladi. Bu hikoyani skiflar ham naql qiladilar. Skiflarning hikoyalari orqali arimasplar nega skif tilida shu nom bilan atalganligining sababi ochiladi, ya'ni skiflar tilida «arima» so'zi «bir» ma'nosini bildirishi, «ospa» esa ularning lahjasida «ko'z» ekani oydinlashadi.⁴³ «Arimasp» so'zining etimologiyasi xususida to'xtalgan M.Z.Zakariyevning yozishicha, «arima» so'zi skiflar tilida «bir» ma'nosini bildirgan bo'lib, «spu» esa «ko'z» demakdir. Agar «bir ko'zli» deganda ko'zining bittasi yumuq yoki qisq kishilar nazarda tutilgan, deb hisoblasak, u holda «arima» leksemasini turkiy tillarda «yarim» so'zining qadimiy shakli, deb taxmin qilish mumkin bo'ladi».⁴⁴

Mutaxassislar qadimgi yunon manbalarida arimasplar yurti bilan bog'liq Ripey toponimi ostida hozirgi Oltoy tog'lari nazarda tutilgan, deb hisoblaydilar.⁴⁵ Bu esa, birinchidan, «bir ko'zli mavjudotlar» haqidagi mifologik tasavvurlar Tog'li Oltoydan Orolbo'yigacha bo'lgan ulkan hududda yashagan qadimgi skif qabilalari folklorida yuzaga kelganligiga yorqin dalil bo'la oladi; ikkinchidan, bir ko'zli fantastik mavjudot obrazi etnik kelib chiqishi sarmatlar bilan bog'liq osetin mifologiyasida uchrashi, shuningdek, sak va massaget qabilalarining bugungi avlodlari hisoblangan O'rta Osiyo turkiy xalqlari mifologiyasida bir ko'zli dev, yakchashma, Doroko'z va boshqa mifik personajlarning tasvirlanishi qadimgi skif qabilalari o'rtasidagi o'zaro yaqin madaniy aloqalar mavjud bo'lganligini bildiradi. Gerodotning «Issedonlar aytib bergan ana shu hikoyani skiflar ham naql qiladilar» deb yozishiga asoslangan holda aytish mumkinki, arimasplar to'g'risidagi miflar O'rta Osiyoga, ya'ni sak-massagetlari eposiga Oltoy tog'lari etaklari va hozirgi shimoliy Qozog'iston dashtlari hududida yashagan qadimgi etnoslar folkloridan o'tgan bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas.

Dissertatsiyada «asrimasplar», ya'ni «bir ko'zli odamlar» to'g'risidagi qadimiy mifologik tasavvurlar O'rta Osiyo turkiy xalqlari, shu jumladan, o'zbek folkloriga ularning qadimgi ajdodlari – sak-massaget qabilalari epik ijodining evolutsiyasi natijasida o'tgan, deb xulosa chiqarilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «O'rta asr epik sujettlarining badiiy evolutsiyasi» deb atalgan bo'lib, uning «O'zbek folklorida yetakchi motivlar genezisini o'rganishda yozma manbalarning o'rni» nomli ilk faslida qadimgi

⁴⁰ Ошикнома / Хоразм достонлари. 4-китоб. – Урганч, 2009. – Б. 325-326.

⁴¹ Турдимов Ш. Доро куз – циклоп // Узбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1985, 6 июль (№27).

⁴² ЗУФА. Пап. № 94. Инъ. №1439.

⁴³ Древние авторы о Средней Азии. – Ташкент: Остехиздат, 1940. – С. 20.

⁴⁴ Закрев М.З. Об изучении древних тюрков и их языков // Тюркское языкознание. – Ташкент: Фан, 1985. – С. 26.

⁴⁵ Исмагилов Р.Б. О локализации некоторых племен «Истории» Геродота / Исторические чтения памяти М.П.Грязнова. Ч. 2. – Омск, 1987. – С. 75.

turkiy yozma manbalar va o'zbek mifologiyasida shakllangan sujetlarning afsonalar marosim folklori materiallaridagi talqini tahlil qilingan. Yozma manbalar orqali saqlanib qolgan epik sujetlarning tarixiy taraqqiyoti va badiiy evolutsiyasini tadqiq etish muayyan folklor asarining bir necha asrning tadrijiy rivojini yoritish, qolaversa, bevosita jonli ijro jarayonida yozib olingan epik asarlar sujetining genezisi va shakllanish jarayonini aniqlashda muhim ilmiy qimmatga ega. Biz X asrning iste'dodli muarrix Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asaridagi xalq og'zaki ijodi materiallarini tahlilga tortdik.

Ulug' muarrix Buxoroning vujudga kelishi tarixi, uning atrofidagi qishloqlar ta'rifi, shaharning guzarlari, obidalari, uning o'ziga xos xususiyatlari, hukmdorlari va bu yerda bo'lib o'tgan voqea-hodisalar haqida hikoya qilar ekan, o'zigacha yozilgan tarixiy-jo'g'rofiy asarlardan foydalanish bilan bir qatorda xalq og'zaki ijodi materiallari, xususan, afsona, rivoyat, naql, masal va hikoyatlarga ko'p bora murojaat qiladi. Masalan, asarning Karmana ta'rifiga bag'ishlangan faslida bu joyning ilgari "Bodyayi xurdak" deb atalganligini dalillash maqsadida "Masalda aytilishicha, qadim vaqtlarda Karminani "Bodyayi xurdak" ("Ko'zacha") deb ataganlar",⁴⁶ – deb yozadi. Bu o'rinda "masal" so'zi xalq og'zaki badiiy ijodi janri, ya'ni rivoyat, naql, afsona ma'nolarida qo'llanilgan. Boshqa o'rinlarda ham tarixnavis olim xalq nasri namunalariга murojaat qilganida "hikoyat", "rivoyat qilishlaricha", "rivoyatda aytilishicha" singari atama va birikmalarni ishlatishi kuzatiladi.

Ma'lumki, g'aznaviy sulolasining yirik vakillaridan biri Sulton Mahmud G'aznaviy o'zining hukmronligi davrida ilm-fan, adabiyot va san'at taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratgan. Uning davrida Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy, Utbiy, Abul-Fazl Muhammad ibn Husayn Beyxakiy, Abu Sa'id Abd al-Xayya bin Zaxxak al-Gardiziy singari yirik olimlar, Firdousi kabi ulug' shoirlar yashab ijod qilishgan. Bu davrda yaratilgan ilmiy, tarixiy, adabiy va ma'rifiy adabiyotlarda Markaziy Osiyo turkiy xalqlarining tili, madaniyati, adabiyoti, san'ati, dini va mifologik e'tiqodlariga oid g'oyat muhim ma'lumotlar uchraydi. Xususan, 1017-yildan to umrining oxirigacha Mahmud G'aznaviy mamlakatining poytaxti – G'aznada yashagan ulug' olim Abu Rayhon Beruniyning bevosita Sulton Mahmudga bag'ishlab yozgan "Qoduniy Ma'sudiy" ("Mas'udov kanon") nomli astronomik traktati, shuningdek, "Hindiston", "Mineralogiya", "Kitob as-saydana fi-t-tibb", ya'ni "Saydana" kabi ilmiy asarlarida turkiy xalqlarning mifologiyasi va e'tiqodiy qarashlariga doir qimmatli materiallar jamlangan.

Abu Rayhon Beruniy o'zining "Hindiston" asarida hindlarning olamning yaratilishi, yer, osmon va samo yoritqichlarining paydo bo'lishi to'g'risidagi kosmogonik afsonalarini keltirar ekan, ularni yunon, fors, arab va qadimgi xorazmliklarning shu mavzudagi miflari bilan qiyoslaydi. Bu asarda naql qilingan astral mif va afsonalar Markaziy Osiyo turkiy xalqlarining arxaik mifologiyasini o'rganishda ham muhim manba hisoblanadi. Masalan, Beruniy hikoya qilgan kosmogonik miflardan birida aytilishicha, "hamma narsadan ilgari suv paydo bulib, olam fazosi suv bilan to'liq bo'lgan. Aytishlaricha, suv to'liq inlanib ko'piklanganda undan oq bir narsa hosil bo'lgan. Tangri shu narsadan Barohim

⁴⁶ Наршахий Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар. Бухоро тарихи. – Тошкент. Фан, 1966. – Б. 20

tuxumini yaratgan. O'sha tuxum ikki pallaga ajralib, bundan Barohim chiqqan. Tuxumning bir pallasi osmon, ikkinchi pallasi yer bo'lgan".

Markaziy Osiyo turkiy xalqlarida olamning tuxumdan yaratilganligi haqidagi kosmogonik mif unutilib ketgan bo'lsa-da, ana shu arxaik tasavvurning muayyan izlari folklor asarlarida, urf-odat va marosimlarda, ayniqsa, navro'z bayrami bilan bog'liq bahoriy rituallarda saqlanib qolgan. Xususan, turkman, o'zbek xalqlarida qayd etilgan "oxir chorshanba", "qora chorshanba" udumi, boshqirdlarning "sabanto'y" bayramida ko'za, kosa singari sopol idishlarni, shuningdek, suvqovoq sindirish odati olamning tuxumdan paydo bo'lganligi to'g'risidagi mifologik tasavvurlar asosida kelib chiqqan. Ya'ni ko'za (yoki boshqa sopol idish) ramziy ma'noda "samoviy tuxum" timsoli bo'lib, uning sinishi qadimgi kosmogonik mifga ko'ra dastlabki ummon ko'pigidan hosil bo'lgan tuxum sinib ikki pallaga bo'linishi va yer bilan osmonning paydo bo'lishi – xaosdan kosmosning vujudga kelishini anglatadi.

Bundan tashqari, olimning "Hindiston" asarida oy bilan quyosh tutilishini osmonda yashovchi afsonaviy yovuz kuchning xuruji deb talqin qilishga asoslangan qadimgi mif ham keltirilgan. Mifda aytilishicha, dayt'ya jinsidan bo'lgan bir mavjudotning farishta ko'rinishida kelib daryo tubidan olib chiqilgan muqaddas taomni tatib ko'rgach, buni sezib qolgan Vishnu qilichi bilan uning boshini chopib tashlabdi. Ammo sehrli taomni tatiganligi sababli bosh tirik qolibdi va osmonda uchib yurib, oy bilan quyoshni quvib yurar, yetib olganda yuta boshlar ekan. Ammo tanasi yo'qligi sababli osmon yoritqichlari tutqundan xalos bo'lishar, bu hodisani ko'rgan odamlar "oy tutildi", "quyosh tutildi" deyisharkan. Osmon yoritqichlarini yutib yuboruvchi afsonaviy samoviy jonzot to'g'risidagi astromifologik sujet umumturkiy mifologik asosga ega bo'lib, Markaziy Osiyo turkiy xalqlari, jumladan, turkman, o'zbek, qoraqalpoq, qozoq va qirg'izlar orasida ham keng tarqalgan.

Abu Rayhon Beruniyning "Mineralogiya" asari ham turkiy xalqlarning etnomadaniyati va tabiat hodisalari bilan bog'liq mifologik tasavvurlarini o'rganishning nodir manbalaridan biri hisoblanadi. Bu asarda do'l va yomg'irni to'xtatish maqsadida "yada" toshidan foydalanish, toshbaqani to'ntarib qo'yish kabi magik usullar haqida batafsil yozilgan.

Ma'lumki, Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston", "Saydana", "Osor ul-boqiya" kabi asarlarida keltirilgan mif, afsona, rivoyat va naqlar, o'rta asarlarda yashagan ajdodlarimizning mifologik va e'tiqodiy qarashlariga oid materiallar, o'sha davrlarda qo'llanilgan vaqt hisobi amallari to'g'risidagi faktlar folkloridagi epik sujetlarning tadrijiy rivojini tadliq etishda muhim o'rin tutadi. Xalqimizning "ayamajuz" bilan bog'liq afsona va e'tiqodlari g'oyat qadimiy asoslarga ega. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, "shubat" (ya'ni fevral) oyida "kampir kunlari" bo'lib, uning boshi yigirma oltinchi shubatdir. U ketma-ket yetti kun bo'ladi. Qadimgilar hikoyasiga ko'ra, bu kunlarning "kampir kunlari" deb atalishining sababi shuki, od qavmi shu kunlarning qattiq sovuq shamoli, girdoblari va dahshatlari bilan halok bo'lgan. Ular jumlasidan bir kampir tirik qolgan va halok bo'lganlarga marsiya aytib, yig'lagan. Shuning uchun bu kunlar "kampir kunlari"

deb atalgan. Bu (kecha-kunduzlar) qissasi mashhurdir”.⁴⁷

Mazkur sujet Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham uchraydi. Asarning “Qissai Hud alayhissalom” nomli faslida gunohkor od qavmining sovuqdan qirilib ketishini izohlagan sujetda xulodadan qavmi uchun omon tilagan kampirninggina omon qolgani va qishning oxirgi kunlari kampir kunlari deb atala boshlagani hikoya qilinadi.⁴⁸

“Kampir kunlari” to‘g‘risidagi bu epik sujet asosida shakllangan afsonalardan biri Samarqand viloyatining Bulung‘ur tumanidagi Qoraqursoq qishlog‘idan yozib olingan. Unda aytilishicha, Ajuz 4000 ga kirgan kampirning ismi ekan. Bir kuni qattiq shamol esib, sovuq baloday bo‘lib kelganida hamma odamlar qo‘l ushlab, daraxtlarga tirmashib, bir xillari esa uylariga kirib yoki jarni panalab shamoldan saqlanmoqchi bo‘libdilar. Ajuz kampir esa yerdan o‘ziga bir chuqur qazdirib, shu ungurga tushib yotibdi. Bir-birining qo‘lidan ushlab turgan odamlar kuchli shamolga bas kelolmay halok bo‘libdilar. Ro‘baro‘ kelayotgan shamol daraxtlarni ham odamlar bilan birga qo‘shib yiqitibdi, tomlarni qulatibdi. Jardagilarni ham osmonga uchirib olib chiqib ketibdi. To‘qson kun davom etgan kuchli shamol yer tagidagi issiqqina chuqurda yotgan kampirga zarar qilmabdi. Ammo yana olti kun qattiq shamol bo‘lib, chuqurlarni ham kovlab tashlabdi va balandliklardagi qum-tuproqni uchirib chuqurlarga olib borib tiqibdi. Shunda kampir ham o‘lib ketibdi. Qattiq sovuq va shamol bilan kechgan olti kun esa “ajuz” atalib qolibdi.⁴⁹

Rabg‘o‘ziy hikoya qilgan afsona chamasasi “Qur‘oni karim” rivoyatlari asosida yaratilganga o‘xshaydi. Garchi islom mifologiyasi ta‘sirida afsona sujeti diniy motivlar bilan chatishib ketgan bo‘lsa-da, “Ayyom kunlari” atamasining kelib chiqishi haqidagi qadimiy mif qoldiqlari ham saqlanib qolgan. U ham bo‘lsa bu kunlarning tabiat hodisalari – shamol, quyun hamda kampir obrazi bilan bog‘liqligidir. Shamol Ayamajuz haqidagi o‘zbek xalq afsonalaridagi mifologik qahramonning g‘ayritabiiy qudratini belgilovchi yetakchi poetik detallardan biri vazifasini bajaradi. Rabg‘o‘ziy afsonasidagi kampir tabiat sixiyasiga bevosida aloqador badiiy obraz ekanligini ko‘rsatuvchi dalillarning birinchisi uning qora bulutni qavmdoshlaridan avvalroq ko‘ra olganligi bo‘lsa, ikkinchisi, uning od qabilasini halok etgan yel xurujidan omon qola bilanligidir.

Bizningcha, mifning ilk namunalarida kampir sovuq shamol va yog‘ingarchiliklarning ramziy “egasi” yoki bevosita shamolga bardosh berolmay halok bo‘lgan afsonaviy iloha sifatida tasvirlangan bo‘lishi kerak. Rabg‘o‘ziy hikoya qilgan afsonada “kampir kunlari”dagi fojeani boshidan kechirgan momoning ismi (Miz) Ayamajuz atamasiga etimologik jihatdan aloqador bo‘lishi ham mumkin. “Kampir kunlari” to‘g‘risidagi afsona sujeti dastavval O‘rta Osiyo xalqlari mifologiyasida shakllangan bo‘lib, qachonlardir Amu sohillarida istiqomat qilgan alan va os urug‘larining Hazar (Kaspiy) dengizi ortiga ko‘chib o‘tishi natijasida dog‘istonliklar folklorida ommalashgan bo‘lishi kerak.

Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida

⁴⁷ Беруний Абу Райхон. Таълиқланган асарлар. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 298-300.

⁴⁸ Рабғузий Носируддин Бурҳонуддин. Қисаси Рабғузий. 1-жид. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б. 48-50.

⁴⁹ ЗУФА. Инв. №1830/1. – Б. 44-45 (1958 йилда Ҳазратқул Муҳаммадқул ўғли ёзиб олган)

“kampir kunlari” bilan bog‘liq mifologik qarashlarning genezisini oydinlashtirishga imkon beradigan yana bitta muhim dalil bor: bu xorazmliklarning “Minach-axib” hayiti bilan bog‘liq ma’lumotdir. Beruniyning yozishicha, “Mina xorazmliklarning malikalaridan yoki obro‘-e‘tiborli ayollaridan birining nomidir. Bir kuni u sarxush holatda Saroy tashqarisiga chiqibdi. O‘shanda endigina bahor boshlangan bo‘lib, hali qishning zahri qaytmagan, kechalar sovuq tushar ekan. Mina tashqarida yiqilib, uxlabdi va kechasi ayozda sovuqqa bardosh berolmay o‘libdi. Bahor oqshomida odam o‘ladigan darajada sovuq tushganligidan hayratlangan odamlar bu voqeani yovuz kuchlar xurujidan deb biladilar. Shu bois, har yili Mina o‘lgan kechasi hayit qilib, is chiqarganlar, har xil dorilarni tutatib, yovuz ruhlarni haydashga harakat qilganlar”.⁵⁰

Ana shu marosim asosida Mina hayiti kelib chiqqan. Bu marosim aslida bahor arafasida o‘tkazilgan bo‘lib, Beruniyning guvohlik berishiga qaraganda, avom xalq uni qish yarmida o‘tkazishga odatlangan ekan.⁵¹ Keyinchalik “kampir kunlari” haqidagi mifologik qarashlar evolutsiyasi natijasida qishni kuzatib, bahorni qarshilash marosimi funksional o‘zgarishga uchraydi va ko‘klamning bemavrid ayozlaridan saqlanish maqsadida o‘tkaziladigan ramziy hayitga aylantirilgan. Bu hayitda tabiat hodisalarini boshqarib turuvchi afsonaviy homiylar va qish timsoli hisoblangan mifologik qahramonlarga atab qurbonliklar qilingan. Qishni kuzatish marosimida o‘zining sovuq shamollari va ayosi bilan dehqonlarni tashvishga solib qo‘yadigan qish ramzi – Mina haqidagi mifologik afsonalar hikoya qilingan. Ritual raqslar vositasida mif mazmunini ko‘rsatib berish bu mavsumiy marosimning yetakchi uzvlaridan biri bo‘lgan. “Mina kechasi” hayiti va u bilan bog‘liq mifologik qarashlar qadimgi xorazmliklarning qishni kuzatish bilan bog‘liq irim-sirimlari va ko‘hna an‘analari asosida kelib chiqqan. Bu marosim keyinchalik unutilib ketgan bo‘lib, uning mohiyati “Mina kechasi” yoki “kampir kunlari” haqidagi xalq qarashlarida o‘z ifodasini topgan.

Shuningdek mazkur faslda Abu Hafs Najmiddin Umar ibn Muhammad an-Nasafiy as-Samarqandiyning “Kitob ul-qand” asarida keltirilgan toponimik rivoyatlar ham tahlilga tortildi.

Bobning ikkinchi fasli “Etnonimik motiv va yozma manbalardagi epik sujet” tadqiqiga bag‘ishlandi. Ma’lumki, urug‘-qabila, elat, qavm va xalq nomining kelib chiqishini real hayotiy uydirma asosida bayon etuvchi og‘zaki nasriy asarlar “etnonimik rivoyatlar” deb yuritiladi. Etnonimik rivoyatlar esa, aynan voqea-hodisalar orqali urug‘ yoki qabila nomining kelib chiqishini izohlovchi etnonimik motiv asosida shakllanadi. Folklorshunoslikda o‘zining hajman ixchamligi, sujet qurilishining soddaligi va asosan tinglovchiga muayyan etnik nomning vujudga kelish sabablari haqida axborot berish funksiyasini bajarishi bilan alohida xarakterlanadigan bunday rivoyatlarning tadqiq etilishi bilan bog‘liq ikkita muammo mavjud. Shulardan birinchisi, bu tip xalq ijodi asarlarining janriy mansubiyatini belgilash va ilmiy tavsiflashda haligacha bir to‘xtamga kelinmaganligi bilan bog‘liqdir. Shu bois, ilmiy adabiyotlarda bu tip og‘zaki nasriy asarlar “etnogenetik rivoyat”, “eponimik rivoyat”, “geniologik rivoyat” kabi

⁵⁰ Беруний Абу Райхон. Таъланган асарлар. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 281.

⁵¹ Беруний Абу Райхон. Ко‘rsatilgan asar. – Б. 281.

atamalar bilan ifodalab kelinmoqda. Masalan, urug‘, qabila yoki elatlar nomining yuzaga kelishi haqida hikoya qiluvchi folklor asarlarini taniqli rus folklorshunosi V.Gusev “eponimik rivoyatlar”⁵², V.N.Moroxin “etnogonik afsona”⁵³ deb hisoblaydi. Boshqird folklorshunosi F. Nazershina urug‘ va qabilalarning kelib chiqishi to‘g‘risidagi xalq rivoyatlarini “tarixiy-genetik rivoyatlar” deb nomlagan.⁵⁴ M.Ya.Grinblat esa xalq va elatlarning kelib chiqishi haqida hikoya qiluvchi folklor asarlarini “etnoijtimoiy afsonalar” tarzida tasniflagan.⁵⁵ O‘zbek folklorshunosligida ham bu xil rivoyat va afsonalarni nomlashda turli xil atamalarning qo‘llanilishi holati kuzatiladi. Masalan, K.Imomov “u yoki bu xalqning etnik xususiyati, nomlanish tarixini yoritishda manbalik vazifasini ado etadi”gan nasriy asarlarni “eponimik rivoyatlar” deb atagan.⁵⁶ O‘zbek xalq tarixiy afsonalarini tadqiq etgan M.Rahmonovning talqinicha, “urug‘ va qabilalar nomining kelib chiqishi, xalq etnik tarkibining shakllanishi, etnik migratsiya va qabilalararo munosabatlar haqida hikoya qiluvchi folklor asarlari” “geniologik afsonalar” deyiladi.⁵⁷ O‘zbek folklorida tarixiy voqelikning badiiy aks etishi masalasini tadqiq etgan U.Jumanazarov esa muayyan etnik nomning yuzaga kelish sabablarini izohlash, tushuntirish maqsadida hikoya qilingan rivoyatlarni “etnonimik rivoyatlar” deb baholagan.⁵⁸ Bizning nazarimizda, urug‘-qabila va xalq nomini bildiradigan lug‘aviy birliklar tilshunoslikda “etnonim” deb yuritilishi sababli, xalq nasrining bu kabi namunalari “etnonimik rivoyat” tarzida guruhlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Ma‘lumki, o‘rta asrlarda yaratilgan tarixiy, adabiy, jo‘g‘rofiy xarakterdagi yozma manbalarda o‘zbek xalqining shakllanishida ishtirok etgan urug‘ va qabilalarning kelib chiqish tarixi, ularning joylashish hududi va migratsiyasi, o‘ziga xos urf-odatlar, turmush tarzi, mehnat xarakteri va qorluqlardan yetishib chiqqan sardorlar haqidagi xalq rivoyatlarining ko‘pgina namunalar uchraydi. Xitoy manbalarida “Ko-lo-lu” (“gelolu”) tarzida tilga olingan qorluqlarning qadimgi ajdodlari Oltoy tog‘lari etaklarida, Irtish daryosi sohillarida istiqomat qilishgan.

Qorluqlar bir qancha qadimiy turkiy etnoslar, xususan, arg‘u, tuxsi, yag‘mo, chigil, xalaj kabi urug‘lar bilan birgalikda o‘zbek xalqi va o‘zbek adabiy tilining shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Bu etnik guruhlar asrlar davomida ro‘y bergan migratsion jarayonlar natijasida Movaraunnahrga ko‘chib kelib, bu hududning tub aholisi bilan qo‘shilib ketishgan. Qorluqlar “y”lovchi sheva vakillari bo‘lib, ularning tili “qorluq-chigil-uyg‘ur lahjasi”ga mansubdir.

O‘rta asr yozma manbalarida keltirilgan xalq rivoyatlari orasida qorluq etnonimining kelib chiqish tarixi, bu qavmning o‘ziga xos turmush tarzi va

⁵² Гусев В.Е. Эстетика фольклора – Л. Наука, 1967. – С. 122-123.

⁵³ Прозаические жанры русского фольклора. – М.: Наука, 1977. – С. 167.

⁵⁴ Назершина Ф. Халык хатере. – Уфа, 1986. – С. 129-138.

⁵⁵ Гринблат М.Я. Белорусские легенды и предания (вопросы собирания, изучения, систематизации) // Прозаические жанры фольклора. – Минск, 1974. – С. 202.

⁵⁶ Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 89-90.

⁵⁷ Рақмонова М. Ўзбек халқ тарихий афсоналари (генезиси ва таснифи): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 57.

⁵⁸ Жуманиязаров У. Этнонимик ривоятлар – халқнинг этник состави ва социал тарихини ўрганиш учун муҳим манба сифатида / Ўзбек филологиясининг долзарб масалалари. – Тошкент: Фан, 1991. – П. 47-49.

an'analar haqida muhim ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirganligi bilan xarakterlanadi. Xususan, XIV asrning mashhur muarrix Rashid-ad-dinning "Jome' at-tavorix" asarida qorluq atamasining paydo bo'lishi to'g'risidagi etnonimik rivoyat afsonaviy O'g'uzxonning sarguzashtlari bayoniga bag'ishlangan epik sujetga singdirib yuborilgan. Muarrix bu etnonimik rivoyatni shunday hikoya qiladi: "Aytishlaricha, O'g'uz [o'zining xalqi bilan] Gur va Garchiston viloyatlariga qilgan safaridan keyin o'zining doimiy yashaydigan yurtiga qaytayotganida ularning oldidan baland tog' chiqib qolibdi. Ular shu tog'dan o'tishayotgan paytda kuchli qor yog'ibdi. Bir nechta oila qorbo'roni tufayli yo'lni davom ettirilmay, tog'da qolib ketishibdi. Hech kimga qo'shindan ajralib qolishga ruxsat berilmaganligi sababli bu oilalarning qolib ketishi O'g'uzga yoqmadbi va u: "Bu qanaqasi, kimdir bu qorli joyda qolishi mumkinmi?" – debdi, Shundan keyin u qorli tog'da qolib ketgan bir nechta oilaga "qorluq" deb ism qo'yibdi. Qorluq urug'i o'sha kishilarning avlodlaridir".⁵⁹

Turkiy urug'lardan ko'pchiligining kelib chiqishini O'g'uzxon nomi bilan bog'lab naql qilish o'rta asr yozma manbalaridagi etnonimik nasrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan etnonimik rivoyatlarda turkman, xalach, chigil kabi urug'lar nomining kelib chiqish tarixi Iskandar Zulqarnayn bilan bog'lab bayon qilinishi an'anasi kuzatiladi. Undan keyingi davrlarda esa bunday rivoyatlar sujeti va obrazlar tarkibi o'zgarishga uchragan. Bunda eng muhim o'zgarish etnik atamaning vujudga kelishi O'g'uzxon sarguzashtlariga bog'liq holda izohlanishidir. Bizningcha, bu an'ana turkiy xalqlar folklorida "O'g'uznoma" sujetlarining g'oyat keng ko'lamda ommalashishi jarayoni bilan bog'liq holda kelib chiqqan.

Qorluq urug'ining vujudga kelishi to'g'risidagi rivoyatning "Jome' at-tavorix"da naql qilingan namunasi keyinchalik boshqa muarrixlarning asarlarida ham keltirilgan bo'lib, an'anaviy epik sujetning u yoki bu motivlari o'zgarishga uchraganligi, boyitilganligi va sayqal topganligi kuzatiladi. Masalan, Mirzo Ulug'bek o'zining "To'rt ulus tarixi" asarida "Jome at-tavorix"dagi epik sujet bir qadar takomillashtirilganligini ko'ramiz. Unda naql qilinishicha, "O'g'uzxon G'o'r sarhadidan Turon zamin tomon yo'lga chiqqanda qish juda sovuq kelgan edi. Dasht-u sahroni qor tamoman qoplab olgandi. U buyurdiki, hech kim lashkardan orqada qolib ketmasin. Ammo, qor ko'pligi va sovuqdan ba'zilar lashkardan orqada qolib ketdilar. O'g'uzxonga bu ma'lum bo'lgach, yana farmon berdi. Ularni topib keldilar. So'roqlaganlari bilan, baribir qolib ketganlar bo'ldi. Surishtirib, qolganlarga qorliq deb nom berdi".⁶⁰

Ko'rinadiki, mazkur etnonimik rivoyatning "To'rt ulus tarixi"dagi talqini Rashid-ad-din hikoya qilgan namunadan biroz farqlanadi. Bu farqli belgilar O'g'uzxon o'z qo'shinidagi kishilarga "hech kim orqada qolib ketmasin" deb buyruq berganligi, qorli tog'dan o'tayotganda lashkardan orqada qolib ketgan kishilar hukmdorning huzuriga olib kelinishi, O'g'uzxonning ogohlantirishiga qaramay, ular tag'in ortda qolib ketishi kabi motivlar qo'shilishi natijasida epik

⁵⁹ Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Т.1. – М.-Л., 1952. – С. 84-85.

⁶⁰ Мирзо Улугбек. Турт улус тарихи. – Тошкент: Чулпон, 1994. – Б. 34.

suje't takomillashtirilgan.

O'rta asrlar tarixnavisligining muhim manbalaridan biri – muallifi noma'lum bo'lgan “Tavorixi guzida – Nusratnoma”da esa “Qorluq” atamasi dastlab etnonim emas, balki joy nomi, ya'ni toponim sifatida vujudga kelganligi naql qilinadi: “O'g'uzxon Gurjistonga qilgan yurishidan o'z yurtiga qaytayotgan paytida qilin qor tushadi. Uning butun qo'shini og'ir ahvolda qoladi. Ko'pchilik sovuqdan halok bo'ladi. Bir qism qo'shini esa ortda qolib ketadi. O'g'uzxon ana shu joyni “Qorluq” deb ataydi. Mana shundan keyin ana shu joydagi odamlar va ulardan tarqalgan avlodlar qorluqlar deb atala boshlanadi”.⁶¹ Bu rivoyat ko'pfunksiyali og'zaki nasriy asar bo'lib, unda ham toponimik (Qorluq degan joy nomining kelib chiqishi), ham etnonimik (qorluq urug'i nomining vujudga kelishi) kod mavjuddir.

Mazkur etnonimik rivoyat sujetining keyingi davrlardagi tarixiy manbalardagi talqinida matnga badiiy jihatdan sayqal berilishi holati kuzatiladi. Masalan, Hofiz Tanish Buxoriy o'zining “Abdullanoma” (Sharafnomai shohiy) asarida qangli, qipchoq, uyg'ur, xalach, og'ojiri singari urug'lar nomining kelib chiqish tarixi haqida hikoya qilar ekan, qorluqlarning qadimgi ajdodlari tarixini ham yoritadi: “Qachonki, O'g'izxon G'ur va Garjistondan o'zining asr yurtiga qaytar ekan, bir baland toqqa yetdiki, osmon balandlikda uning kamarbastasi edi va (o'sha vaqt) yer atrofi, havo etagi qor bilan to'lgan tog'day mushk va kofir bilan to'lgan edi. Sovuqning shiddat va savlatidan bir firqa (O'g'izxonning) muborak uzangisiga mulozim bo'lishdan ortda qoldi. (Mavjud) yasoq va qoida kishini undan ortda qolishga yo'l qo'yadigan emas edi. O'g'izxon o'sha harakat ulardan sodir bo'lganini bildi va tanbeh va tobelik yuzasidan u xalqqa “qorliq” deb laqab berdi; ya'ni (qorliq) qor egasi demakdir. Ular o'sha joyda turib qoldilar”.⁶² Qorluqlar haqidagi etnonimik rivoyatning bu variantida XVI asr O'rta Osiyo tarixnavisligining o'ziga xos uslubi, ya'ni hayotiy voqelik va tarixiy hodisalarni tasvirlashda badiiy vositalardan samarali foydalangan holda qalam tebratish an'anasi o'z ifodasini topgan.

Mazkur rivoyatning yozma manbalardagi epik talqinini qiyosiy tahlil qilib, uning badiiy evolutsiyasiga doir olib borgan kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, asrlar davomida ushbu rivoyat sujeti izchil rivojlanib, taraqqiy etib kelgan. Uning motivlar tarkibi tobora boyib, takomillashib kelavergan. Rivoyatning XVI asrdan keyingi manbalardagi namunalarida matnni badiiy jihatdan sayqallashtirish o'ziga xos an'ana tusini olgan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi “Afsona va rivoyatlarda epik sujetining poetik transformatsiyasi” deb nomlandi. Bobning dastlabki fasli “Afsonalarda epik sujet transformatsiyasi” tadqiqni o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, qadimgi Xitoy yozma manbalari turkiy xalqlarning ajdodlari tomonidan yaratilgan mif va afsonalarni o'rganishning eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Chunki u yoki bu sulola tarixini yoritishni o'z oldiga maqsad qo'ygan chinlik muarrix-solnomachilar turkiy qavmlar bilan aloqador u yoki bu voqea-hodisalarni bayon qilishda “og'zaki tarix” namunalari hisoblangan afsona va rivoyatlardan, xalq orasida mavjud bo'lgan asotiriy inonch-e'tiqodlar va mifik

⁶¹ Жуминияров У. Ўзбек фольклори ва тарихий воқелик. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 185.

⁶² Ҳофиз Ғаниш ал-Бухорий. Абдулланом (Шарафномаи шохий). 1-жилд. – Тошкент: Шарк, 1999. – Б. 39.

sujetlardan ham samarali foydalanishgan. Ushbu nodir yozma manbada o'z ifodasini topgan mifologik sujetlardan biri qadimgi turkiylar folklorida totem-ajdod sifatida e'tirof etilgan bo'ri to'g'risidagi totemistik mifning qoldiq-reликт holidagi talqinidir.

Ma'lumki, turkiy qavmlarning qadim ajdodlari bo'rini ajdod boshi totem sifatida bilishganligi uchun qadimgi turkiy xalqlar folklorida bo'ri bilan bog'liq totemistik miflar yaratilgan.⁶³

Qadimiy mifologik afsonalardan birida ashina urug'ining kelib chiqishining bo'ri bilan aloqadorligini izohlovchi shunday tarix keltiriladi: "Ashina Xun uyining bir qismi sanaladi. Bu urug' bosqinchilarning kutilmagan hujumi natijasida qirib yuborilgan. Faqat o'n yashar bir bola g'animlar tig'idan omon qolgan, xolos. Dushman sarbozlari bolaning qoniga zomin bo'lishni istamay, uning qo'l-oyoqlarini chopib, ko'l bo'yidagi bir o'tloqqa tashlab ketibdilar. Bolani bir bo'ri go'sht berib boqa boshlabdi. Bolaning o'lmaganligidan xabar topgan dushman hukmdori uni yo'q qilish uchun odam yuborgan. Lekin bo'ri bolani olib Sharq tomondagi toqqa qarab qochibdi va qoyalar orasidagi g'orda yashab, o'sha boladan o'nta o'g'il tug'ibdi. Ana shu bolalar ulg'ayib, bola-chaqa orttirib, keyinchalik har qaysi bir urug'ga asos solgan emish".⁶⁴

Afsonada talqin qilinishicha, Ashina bo'rining o'g'illari orasida eng kuchli va chaqqoni bo'lganligi uchun u urug'ning bosh sardori sifatida tan olingan. Hatto u o'z qarorgohiga bo'ri boshining suvrati chizilgan bayroq o'rnatirgan. Ashina urug'i qabila boshlig'ining xos qo'riqchilari ham "fuli", ya'ni "bo'ri" deb atalgan.⁶⁵

A.N.Gumilev Ashina urug'i haqidagi geneologik afsonaning tarixiy asoslarini tadqiq etarkan "ashina" atamasi "janob bo'ri yoki ulug' bo'ri" degan ma'noni anglatgani borasida fikr bildiradi. Shu tariqa ashina tovush uyg'unlashuvi natijasida usun tarzida shakllangan degan xulosani beradi⁶⁶. Bu taxminimizning to'g'riligini tasdiqlaydigan yana bir dalil bor: 1907 yilda Quvondaryo (Sirdaryoning quyi oqimidagi joy nomi) yaqinidan bir necha boshli bo'ri tasviri tushirilgan tilla bilakuzuk topilgan edi.⁶⁷ Ana shu topilma ham bo'ri haqidagi qadimgi turkiy miflar tasviriy ifoda usuliga ko'ra xalq amaliy san'ati asarlarida moddiylashtirilganligini yana bir karra isbotlaydi.

Markaziy Osiyoga bo'lgan migrasiya oqibatida qadimiy usunlar qabilasi o'zbek xalqi tarkibiga singib ketgan. Taxminimizcha, 92 o'zbek urug'laridan biri – uyshunlar qadimiy turkiy qavm – usunlarning bevosita avlodlaridan bo'lishi haqiqatga yaqindir. Uyshun qadimgi usun qavmidan tarqalgan o'zbek urug'laridan

⁶³ Киселев С.В. Древняя история Южной Сибири. – М., 1951. С. 493-494; Зарифов Х. Фольклор ва археология материалларини киёсий ўрганиш масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1958. – №1. – Б. 25-30; Илизбетов Ф.Ф. Культ волка у башкир (к этимологизации этнонима «башкурт») // Археология и этнография Башкирии. Т.IV. – Уфа, 1971. – С. 225; Абрамзон С.М. Фольклорные мотивы в киргизских преданиях генеологического цикла // Фольклор и этнография. Связи фольклора с древними представлениями и обрядами. – Л., 1977. – С. 157; Жураев М. Бури ҳақидаги қадимги туркий мифлар ва ўзбек фольклори // Адабиёт гулшани. – Тошкент, 1999. – Б. 8-17; Яна о'ша «Алпомиш» дostonида мифологик образлар // «Алпомиш» – ўзбек халқ каврамонлик эпоси. – Тошкент, 1999. – Б. 149-154.

⁶⁴ Бичурин Н. Я. Собрания сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т.I. – М., 1950. – С. 220.

⁶⁵ Бичурин Н. Я. Ko'rsatilgan asar. – Б. 290.

⁶⁶ Гумилев Л.Н. Три исчезающих народа // Страны и народы Востока. Вып.2. – М.: Наука, 1961. – С. 23.

⁶⁷ Гумилев Л.Н. Ko'rsatilgan asar. – Б. 23.

biridir.⁶⁸

Shu o'rinda uyshun urug'i usunlarning avlodlari sifatida qadimgi Ashina qavmiga bog'lanishini ham qayd qilmoq kerak. Shunday ekan, bo'ri-ajdod haqidagi qadimgi turkiy mifning etnogenetik yoki geneologik afsonaga aylangan hikoyaviy shakli uyshunlar folklorida saqlanmaganmikin, degan haqli savol tug'iladi.

L.P.Potapov to'plagan etnografik va folkloristik ma'lumotlar orasida bo'ri bilan bog'liq afsonaning qoldiq holda yetib kelgan faqat bir namunasi mavjud, xolos. Qatag'onlardan yozib olingan bu afsonada aytilishicha, bo'ri bir paytlar odam bo'lgan-u, bir avliyoning qarg'ishiga uchrab, bo'riga aylanib qolgan emish. Ko'rinadiki, bu afsona etiologik xarakterda bo'lib, bo'ringning paydo bo'lishini evrilish motivi orqali izohlash maqsadida naql qilingan.

1922-yilda G'ozzi Olim Yunusov tomonidan Ashina haqidagi qadimgi turkiy miflarga bevosita daxldor bo'lgan afsonaning o'zbek xalqi orasida saqlanib qolgan bir namunasi yozib olingan. Bu haqda o'zbek folklorshunosligining asoschisi H.Zarifov yozadi: "o'tmishda yarim o'troq hayot kechirgan o'zbek urug'lari (qirq, qo'ng'iroq, qatag'on, qangli va h.k.) o'zbek xalqi 92 urug'dan iborat degan fikrni aytganlarida, "Tulum o'zbekning tubi bir" deydi. Bu maqolning mazmunini izohlovchi afsona borki, uni G'.O. Yunusov 1922-yilda o'zbek bilim hay'ati tomonidan til va folklor materiallarini to'plash uchun tashkil etilgan ekspeditsiya vaqtida Mirzacho'lda yashovchi o'zbeklardan yozib olgan edi. Afsonada aytilishiga ko'ra, 92 bola bir tulum (tulup) ichida. Ularning otasi go'yo bo'ri bo'lgan emish. 92 urug' shu bolalardan tarqalgan emish. Bu afsona, hech shubhasiz, bizni totemistik tushuncha davriga yetaklaydi", – deb yozadi⁶⁹

